

ilmlar.uz mbaza.uz

2022-2023-O'QUV YILIDA O'RTA
TA'LIM MAKTABLARINING **11-SINF**
O'QUVCHILAR UCHUN **O'ZBEKISTON**
TARIXI FANIDAN MUSTAQIL
SHUG'ULLANISH UCHUN

IMTIHON JAVOBLARI

2023

ESLATIB O'TAMIZ, MAZKUR JAVOBLAR SIZNI VAQTINGIZNI TEJASHGA VA
IMTIHONLARGA ESA KO'PROQ TAYYORLANISH UCHUN YORDAM BERADI.
IMTIHON JAVOBLARINI TIJORIY MAQSADLARDA FOYDALANISH MUMKIN EMAS.
VAQTNI QO'LDAN BOY BERMANG, TAYYORGARLIKNI HOZIRDAN BOSHLANG!

 @USTOZ

1-BILET

1. O‘zbekiston SSRning tashkil topishi.

1925-yil 13-fevralda Buxoroda maxsus qurilgan Xalq uyida Butuno‘zbek (O‘zbekiston SSR) Sovetlarining I ta‘sis qurultoyi ochildi. Qurultoy faoliyatida Moskvadan maxsus kelgan Butunittifoq (SSSR) Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi raisi Mixail Kalinin qatnashdi va nutq so‘zladı. Qurultoy qatnashchilari tomonidan 17- fevralda “O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasini tashkil etish to‘g‘risida Deklaratsiya” qabul qilindi. Deklaratsiyada yangi tashkil topgan O‘zbekiston SSR tarkibiga Toshkent, Samarqand, Farg‘ona, Qashqadaryo, Zarafshon (Buxoro), Surxondaryo, Xorazm viloyatlari va Tojikiston ASSR kirganligi alohida ta‘kidlandi. Qurultoyda respublikaning oliy organlari: O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi (O‘zSSR MIK) va O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti (O‘zSSR XKS) tuzilgan. Taniqli davlat arbobi Fayzulla Xo‘jayev O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti raisi, “Qo‘shchi” uyushmasi faoli Yo‘ldosh Oxunboboyev O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi raisi lavozimlariga saylanishdi.

2. Nurullaboy saroyining o‘ziga xos me‘moriy uslublari haqida gapirib bering.

Nurullaboy saroyi - Xivadagi me‘moriy yodgorlik. Asfandiyorxonning sobiq rasmiy qabulxonasi (20-asr). Bu saroy-bog‘ni Xiva xoni Muhammad Rahimxon II Feruz o‘g‘li Asfandiyorxon uchun qurdirgan (Nurullaboy degan shaxsning bog‘i o‘rniga qurilgani uchun Nurullaboy saroyi deb ataladi). Nurullaboy saroyi 9 ta katta-kichik xonalar, darvozaxona, saroy, qabulxona, arzxona, Madrasa, xizmatchilar uchun turar joy, bog‘, gulzorli hovlilardan iborat. Majmuaga (185,6x143,0 m) jan.dagi ariq ustiga qurilgan ko‘prik orqali darvozadan kiriladi. Darvozaxonaning dalonida bir necha xonalar bor. Saroy to‘g‘ri to‘rtburchak tarhli (87,1x65,0 m), 4 hovlili, qal‘aband devor (bal. — 7,5 m) bilan o‘ralib, burjlar ishlangan. 3 hovlida 2 qavat-li, jan.-g‘arbiy hovlida 1 qavatli xonalar joylashgan. Bosh tarzi darvo-zasi Madrasa, turar joy va arzxona bilan o‘zaro bog‘langan. Saroy shim. dagi 2 hovli ayvonlarning tomi ikkinchi qavat uchun o‘tish joyi vazifasini o‘taydi. Katta hovli saroyning shim.g‘arbiy qismini egallagan. Hovlida quduq bor.

Qabulxona (27,5x32,1 m) saroyning shim.-sharqida, o‘ziga xos yevro-pacha uslubda qurilgan. Bosh tarzi jan.ga qaratilgan. 1 qavatli, 7 xonasi bor. Old va orqa tomoni ayvonli.

Arzxona (82,0x71,0 m) saroyning sharqida joylashgan. Tarhi "G" shaklida, jan. qismi uch burchakli, shim. va g‘arbga qaratilgan ayvonlari mavjud.

Madrasa bosh tarzi sharqqa qaragan. Jan.-sharqiy burchagida 4 ustunli 2 qavatli masjid, shim.-g‘arbida ayvon, hovli atrofida darsxona va hujralar joylashgan. Tashqi devorlari va 4 burchagidagi guldastalar pishiq g‘isht va koshin bilan bezatilgan.

Bog‘ saroyga tushgan bo‘lib, baland qal‘aband devor bilan o‘ralgan, burjlar ishlangan. Bog‘ning 3 tomonida eshik bo‘lib, 2 eshik saroy bilan, sharqdagisi arzxona, qabulxona bilan bog‘langan. Bog‘ o‘rtasida 8 qirrali hovuz bor.

3. Mahmud Zamaxshariyning O‘rta Osiyo diniy ilmi rivojida o‘rni.

Mahmud Zamaxshariy 1075-yil Xorazmning Zamaxshar qishlog‘ida dunyoga kelgan.U Buxoro, Marv,Nishopur, Isfaxon, Bag‘dod va Makkada hayot kechirib ijod qiladi. U 50 dan ortiq asarlar yozgan.Uning arab tili fonetikasi va morfologiyasiga bag‘ishlangan “Al mufassat”, Qur‘oni karim tasviriga oid “Al kashshof” asarini yozadi.Zamaxshariy arab va g‘ayri arablar ustози, Xorazm faxri kabi nomlar bilan ulug‘langan.

2-BILET

1. Besh muhim tashabbusni joriy etilishi.

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo‘ling!

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yilning mart oyida beshta muhim tashabbus ilgari surildi. Bu – yoshlarni madaniyat, san'at va sportga keng jalb etish, ularda zamonaviy axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash vazifalarini o'z ichiga oladi. Yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Mamlakatimiz aholisining 30 foizini 14 dan 30 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar tashkil etadi. Ularning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun keng sharoit yaratilgan. Shu bilan birga, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma'naviy barkamol bo'lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shunchalik kuchli bo'ladi.

Davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi.

Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

Uchinchi tashabbus aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To'rtinchi tashabbus yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Beshinchi tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

2. Sitorai Mohi Xosa haqida ma'lumot bering.

Sitorai mohi xosa - Buxorodagi mang'itlar sulolasining 3 avlodiga mansub saroy – bog'. Buxorodan 4 km shimolda. Dastlabki binolar Nasrullaxon (1826–60) va Muzaffarxon (1860 — 85) hukmronligi davrida qurilgan. Abdulahadxon hukmronligi davri (1885—1910)da saroy va xushmanzara bog' barpo etilgan. AmirOlimxon hukmronligi davri (1910—20)da yangi saroy qurilgan. S.M.X. maydoni 6,7 ga bo'lib, eski saroy, g'isht to'shalgan 3 hovli va ko'pgina xonalardan iborat. Bu yerdagi amir Muzaffarxon mehmonxonasi keng, baland zali, ikki tomondagi bolxonali ayvonlari, yevropacha eshik va derazalari bilan ajralib turadi. Uch qismga bo'lingan murabba tarhli xonani tashkil etuvchi Abdulahadxon xonasi birbiriga qaramaqarshi joylashtirilgan va bir xilda bezatilgan 2 zal o'rtasidagi baland supa orqali birlashtirilgan. Supaning g'arb tomoniga shohnishin taxt o'rnatilgan. Eski saroy sharqidagi amir Olimxonning bosh qarorgohi – yangi saroyga ravoqli muhtasham darvoza o'rnatilgan.

3. Sharq adabiyoti rivojida Mirzo Abdulqodir Bedilning tutgan o'rni.

Bedil (taxallusi; asl ismi Mirzo Abdulqodir) (1644, Bengaliya, Azimobod shahri. — 1721, Dehli) — shoir, mutafakkir. Harbiy xizmatchi oilasida tug'ilgan. Ota-bobosi kesh (shahrisabz)lik, turkiy barlos urug'idan. Yoshligidan turli fanlarga qshiqqan. Shayx Kamol, shoh Fozil va Mirza Abdulqosim kabi olimlardan ta'lim sshgan. Hindiston bo'ylab ko'p sayohat qilgan, 1685 y.dan umrining oxirigacha Dehlida yashagan. Fors tilida ijod qilgan. Arab, fors, hind, urdu tillarini mukammalbilgan, sharq xalqlari adabiyotini, tasavvuf va yunon falsafasini, ayniqsa Aristotel falsafasini at-roflicha o'rgangan. 10 yoshlaridan badiiy ijod bilan shug'ullangan. 20 yoshida she'rlarini saralab to'plashga kirishgan. Murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda yashab ijod qilgan shoir o'z davriga befarq qaramagan, hinllar va

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!

musulmonlarning tinch-totuv yashashligini, yurtni obod, xalqni tinch-osoyishta, farog'atda, hamjihatliqda ko'rishni orzu qilgan. Inson erkinligi, tafakkuri haqida falsafiy fiqolar bayon etgan. Uning falsafiy-axloqiy qarashlari tasavvuf aqidalari ta'sirida shakllangan. Bedil dunyoqarashi tasavvufning vahdat ul-vujud ta'limotiga asoslanadi, ya'ni olamni Allohning ko'zgusi, inson qalbini shu ko'zguning markazideb biladi.

3-BILET

1. 1916-yildagi "Jizzax qo'zg'oloni" va uning oqibatlarini haqida ma'lumot bering.

Jizzax qo'zg'oloni - Jizzax va uning atrofi aholisining chor mustamlakachilariga qarshi olib borgan milliy ozodlik harakati.

Birinchi jahon urushida Rossiya Germaniya va Turkiyaga qarshi kurashida o'zining no'noqligi, uquvsizligi tufayli o'rinsiz qurbonlar berib, Rossiyaning urushga taraddudi puxta bo'lmaganini ko'rsatdi. Rus qo'mondonligi urush og'irligini mustamlakalar yelkasiga ortib, ularni ayovsiz ezish siyosatiga o'tdi. Imperator Nikolay II 1916-yil 25-iyunda „Imperiyadagi rus bo'lmagan erkak aholining harakatdagi armiya rayonida mudofaa inshootlari va harbiy aloqa yo'llari qurish uchun olib boriladigan ishlarga, shuningdek, davlat mudofaasi uchun zarur bo'lgan boshqa har qanday ishlarga jalb qilish haqida“ farmon chiqardi. Unga ko'ra, Turkiston, Sibir va Kavkaz xalqlaridan 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan erkaklarni safarbar qilish ko'zlangan edi. Bu farmonning e'lon qilinishi aholi o'rtasida qonli voqealarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. 4-iyulda Xo'jand xalqi qo'zg'olon ko'tardi, ayni paytda, Samarqand, Jizzax va Kattaqo'rg'on tumanlarida ham g'alayonlar boshlandi. Farg'ona, Sirdaryo, Samarqand, Yettisuv, Zakaspiy viloyatlarida avj olgan g'alayonlar keskinlashib xalq qo'zg'oloniga aylandi. Ayniqsa Samarqand viloyatining Jizzax uyezdida bu voqealar uyushgan va oshkora tus oldi. J.q. aniq maqsadlar — Rossiyadan ajralib, mustaqil bo'lish maqsadi ostida, uyushgan tarzda olib borilgan edi.

Qo'zg'olon arafasida Jizzaxda ham butun o'lkadagi kabi zulm-zo'ravonlik, adolatsizlik cheksiz edi. Aholi, asosan, don, g'alla yetishtirish bilan mashg'ul edi. Mahalliy aholi yerlari tortib olinib, temir yo'l, o'rmon xo'jaligida band bo'lgan rus oilalariga berilgan, yaylovlar qisqartirilgan, o'rmonlar qattiq nazoratda bo'lib, hatto o'tin olishga ruxsat berilmasdi, sug'orish inshootlari ham ma'muriyat qo'lida bo'lib, yer, suv soliqlari tobora oshi-rilmoqda edi. Jizzax uyezdi boshlig'ining ma'lumotnomasida qayd etilishicha, „aholining iqtisodiy ahvoli shu darajada og'ir bo'lganki, ular qishdan bahorga chiqquncha, gadoylar darajasiga tushib qolgan, sadaqa bilan kun ko'rib, bir burda non u yoqda tursin, tariqqa ham zor bo'lgan“. Ana shunday aqvarda kun kechirayotgan aholidan Birinchi jahon urushi yillarida Rossiyaga harbiy ehtiyojlar uchun juda ko'p mahsulot majburan tashib ketildi. Mardikorlikka olish haqidagi farmon e'lon qilingach (3-iyul), norozilik keskin g'alayonlarga aylandi. Ma'muriyat taqsimotiga ko'ra, Jizzax uyezdi 11 ming mardikor, butun Samarqand viloyati 38 ming mardikor berishi kerak edi. Busiz ham halokat yoqasiga kelib qolgan aholi orasidan 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan erkaklarni noma'lum muddatga, ayni qishloq xo'jaligi ishlari qizigan mavsumda olib ketilishi minglab oilalarning boquvchisidan ayirib, halok etishi turgan ran edi. 5-iyul kuniyoq dastlabki g'alayonlar boshlandi. Aholi farmonni bekor etishni, ro'yxat tuzishni to'xtatishni talab eta boshladi. Jizzax ahli boshqa shaharlardagi ahvoldan xabardor bo'lish uchun Toshkent va Samarqandga o'z vakillarini (Toshkentga jizzaxlik Nazir Hoji, Samarqandga bog'donlik Xudoyorqul Hoji) jo'natiladi. Nazir Hoji Toshkent aholisi qo'zg'olon ko'targanidan xabar topib, 12-iyul kuni Jizzaxga qaytadi. Shu kuni Jizzaxning eski shahar qismida to'plangan xaloyiq farmonga bo'ysunmaslikka, kurash boshlashga axd qiladi.

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!

Tuni bilan shahar aholisi bundan ogoh etiladi. Ertasi kuni — 13-iyulda erta tongda Jizzax axli qo'zg'aladi. Damin kulol boshchiligida bir necha ming kishidan iborat olomon mardikorlikka ro'yxat tuzgan ellikboshi Mirzayor Xudoyorni jazolaydi. Shu yerda qo'zg'olonchilar safi kengayib, Jizzaxni bosqinchilardan ozod qilib, mustaqil beklik tuzish rejasi ilgari suriladi. Nazir Hoji eshon Jizzax beki deb e'lon qilinadi. Eng oddiy qurollar — ketmon, kaltak, pichoq, to'qmoqlar bilan qurollangan xaloyiq Jizzaxning yangi shahar qismiga yo'l oladi. Bundan xabar topgan uyezd boshlig'i polkovnik Rukin o'z yordamchilari bilan g'alayonchilar qarshisidan chiqib, ularni aldab, tinchitmoqchi bo'ladi. Biroq, g'alayonchilar unga ishonmay, yonidagi sheriklari bilan qo'shib jazolaydilar, qurollarini tortib oladilar. Bu orada yetib kelgan polkovnik Afanasyev boshliq harbiy kuchlar ham qo'zg'olonchilarni qaytara olmadi. O'zaro to'qnashuvdan so'ng g'alayonchilar bir necha o'n kishini yo'qotib chekindilar va shaharning eski qismida g'alayonga tayyorgarlik boshlandi, atrof qishloqlarga choparlar yuborildi. Temirchilar qurolaslaha tayyorlashga kirishdilar. Toshkentdan Abdurahmon jevachining oldiga vakil kelib, „Siz Jizzaxda odamlarni kurashga boshlang, biz Toshkentdan temir yo'lni qirqamiz, rus askarlari kelolmaydi, hamma yoqni egallaymiz“, deb ogohlantirgan.

Toshkent temir yo'lga hujum qilish imkoni bo'lmagan, chunki bu yerda harbiy qismlar tayyor turardi. Biroq Jizzaxda bu ish juda epchillik bilan amalga oshirilgan. Qo'zg'olonchilar 13-iyul kuni temir yo'l stiyalariga, ko'priklarga hujum qilib, yakson qilganlar, telegraf simlarini uzib tashlaganlar. Ular aloqa vositalarini yakson etib, hukumatga yordam kuchi yuborishga imkon bermaslikka uringanlar, natijada 65 km masofadagi temir yo'l buzib tashlangan. Lomakino, Kuropatkino, Obruchevo, Rostovsevo st-yalari yakson etilgan. O'sha kuniyoq Nazir Hoji eshon bir necha kishi bilan Bog'donga, Abdurahmon jevachinikiga yetib keladi, uning uyida bo'lib o'tgan kengashda Jizzaxni Rossiyadan ajratib olish, mustaqil beklik tashkil etishga qat'iy kelishiladi. 21-iyul kuni Jizzaxdan 12 chaqirim narida Kli (xalq orasida „Kuya boshi“) degan joyda to'planishga qaror qilinadi. To'raqul To'rabekov Sangzor beki deb e'lon qilinadi. Sangzor aholisi Jizzax qo'zg'olonchilarini qo'llab-quvvatlashga ahd qiladi. Zominda ham shunday g'alayonlar boshlanib, Qosimhoji eshonbek deb e'lon qilinadi. Abdurahmon jevachi, Nazir Hojilar atrof qishloq, ovullarga choparlar yuborib, o'zlari ham borib xalqni kurashga chorlaydilar. Abdurahmon jevachi Buxoro amiriga maktub orqali murojaat etib, yordam so'raydi, biroq maktub mirshablar qo'lga tushib qoladi. Rabot, Bog'don, Xayrobod, Forish, Sintob, Nurota dahalariga choparlar yuborilib, kurashga da'vat etilgan. Nixoyat Jizzax yaqinidagi „Kuya boshi“ da 4 ming atrofida olomon to'planadi. Shahardagi nonvoyxonalar uzluksiz ishlab, qo'zg'olonchilarga non yopib, aravalarda tashib keltiriladi. Xaloyiq imkon darajasida ketmon, lo'm, oz bo'lsada miltiq bilan qurollanadi.

Yuz berayotgan voqealar hukumatni sarosimaga solib qo'yadi. 18-iyul kuni Turkistonda harbiy holat e'lon qilinadi. 15-iyul kuniyoq Jizzaxga polkovnik Ivanov boshchiligidagi jazo otryadi yuboriladi. Butun uyezdga polkovnik Ivanov tayyorlagan e'lonlar tarqatiladi. Unda barcha qo'zg'olonchilar qirib tashlanishi, ularning mol-mulki xazinaga (davlat ixtiyoriga) o'tkazilishi ta'kidlanadi.

Mustabid hukumat uyezdga 13 ta rota soldat, 2 ta artilleriya qismi, kazak otryadlari, sapyorlar qismi yuboradi. Jazo otryadi shafqatsizlik bilan deyarli quolsiz bo'lgan qo'zg'olonchilarga qarshi jangga kirishadi. Qo'zg'olonchilar „Yo'qolsin oq podshox“, deb hayqirib, kurashga kirishadilar. Bu voqealar shohidi O'zbekiston yozuvchisi Nazir Safarovning ta'kidlashicha, Jizzax sh. 1,5 kun qo'zg'olonchilar qo'lida bo'lgan.

Jazo otryadi pulemyotlarni ishga solib, avval Jizzaxni, keyin Zomini egallaydi, so'ngra Sangzorga yurish qiladi. Tengsiz janglarda deyarli quolsiz g'alayonchilar ommasi tutdek

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!

to'kib tashlanadi, omon qolganlar quvg'in etiladi.

21-iyul kuni jazo otryadi „Kuya boshi“da to'plangan qo'zg'olonchilar hujumiga uchraydi. Jangda qo'zg'olonchilar bir soat davomida pulemyotdan o'qqa tutiladi. Qo'zg'olonchilar bu jangda yengiladilar, ularning sardorlari Abdurahmon jevachi, Nazir Hoji eshonlar qo'lga olinadi, mustabid hukumat qo'zg'olon ko'targan xalqdan vahshiyona o'ch olishga kirishadi. Qo'zg'olonni uyushtirgan rahbarlar: Abdurahmon jevachi, Nazir Hoji eshon, aka-uka To'raqul va Eshonqul To'rabekovlar, Qosim Hoji eshonlar o'lim jazosiga hukm etiladi. Jizzax sh. va yana bir necha qishloqqa o't qo'yilib, yakson etiladi. Minglab kishilar boshpanasiz, uy-joysiz qoladi.

J. q. mustabid hukumatni qattiq sarosimaga soldi, mazlum Turkistonning mag'rur xalqlari hali ko'p narsalarga qodir ekanligidan, ular uchun erk, ozodlik hamisha muqaddas ekanligidan ogohlantirdi. Hatto rus ma'murlari ham Turkistonda 1916-yil qo'zg'oloni davomida Jizzax g'alayoni alohida o'rin tutishi, oshkora kurash tusini olganini qaytaqayta ta'kidlaydilar. Alamzada hukumat bunday voqeaning qaytarilishiga yo'l qo'ymaslik uchun aholini „adabini berish“, ularni shafqatsiz jazolashni buyurdi. 3-avgust kuni Jizzaxda 3 kun ichida g'alayon aybdorlarini topish, agar tutib berilmasa, aholisi va uy-joylarini yo'q qilib tashlash buyurildi. G'alayon sardorlari tutilgan, o'lim jazosiga hukm etilgan bo'lsada, aholi orasidagi hukumatga qarshi kayfiyatdagi odamlarni yo'q qilish uchun shunday chora belgilandi. 3 kun o'tgach, 7-avgust kuni buyruq bajarildi. Jazo otryadlari shahar aholisini bir joyga to'pgradilar. Pulemyot o'qlari ostida shahardan quvib, cho'lga haydadilar. Ularni ko'pchiligi ayollar, qariyalar, bolalar bo'lib, be-ayov jazolandi.

Bu fojialar haqida Turkistondagi jadidlardan Mustafo Cho'qayev, Ubaydullo Xo'ja Asadullaxo'jayevlar Peterburgga borib Rossiya Dumasiga arz qildilar. Aholi nomidan murojaat etib, zo'ravonlikni to'xtatish, farmonni bekor etish, Turkistondagi ahvolni o'rganish uchun vakil yuborishni talab qildilar. Rossiya Dumasi bu talablar asosida maxsus komissiya tuzib, o'lkaga yubordi.

2. “Qatag'on qurbonlari xotirasi” memorial majmuasi haqida ma'lumot bering.

Vatan ozodligi yo'lida halok bo'lganlarning nomi hech qachon unutilmaydi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach ularning qutlug' nomlari, sha'nlari to'la tiklandi. Bu ishga shaxsan Yurtboshimiz Islom Karimov rahbarlik qildi. U kishining tashabbusi bilan 2000-yilda Toshkentda «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuyi bunyod etildi.

2002-yilda esa shu majmuaning tarkibiy qismi sifatida, «Qatag'on qurbonlari xotirasi» muzeyi barpo etildi. Shu tariqa Vatan ozodligi yo'lida halok bo'lganlar xotirasi abadiylashtirildi.

3. Abdulla Qodiriyning ilmiy merosida tarixiy voqealarni yoritilishi.

Abdulla Qodiriy (asosiy taxalluslari: Qodiriy, Julqunboy) (1894.4.10-Toshkent-1938.10.4) – XX a. yangi o'zbek adabiyotining ulkan namoyandasi, o'zbek romanchiligining asoschisi; 20-yillardagi muhim ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisi. Bog'bon oilasida tug'ilgan. Otasi Qodirbobo (1820–1924) xon, beklar qo'lida sarbozlik qilgan, rus bosqini paytida (1865) Toshkent mudofaasida qatnashgan. Otasi boshidan o'tgan sarguzashtlar Abdulla Qodiriyning qator asarlari, xususan tarixiy romanlarining yuzaga kelishida muhim rol o'ynagan. Abdulla Qodiriy musulmon maktabida (1904–06), rus-tuzem maktabida (1908–12), Abulqosim shayx madrasasida (1916–17) ta'lim oldi; Moskvadagi adabiyot kursida (1925–26) o'qidi. Yoshligidanoq qadimgi Sharq madaniyati va adabiyoti ruhida tarbiya topgan; arab, fors va rus tillarini o'rgangan. Jahon adabiyotini ixlos bilan mutolaa qilgan. Oilasi kambag'allashganligi sababli bolalikdan mustaqil mehnat qilaboshladi, turli kasblarni egalladi, mahalliy savdogarlarga kotiblik va gumashtalik qildi (1907–15). 1917-yil Oktyabr davlat

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!

to'ntarishidan so'ng Eski shahar ozuqa qo'mitasining sarkotibi (1918), „Oziq ishlari“ gazetasining muharriri (1919), Kasabalar sho'rosining sarkotibi (1920), „Mushtum“ jurnalining tashkilotchilaridanva tahrir hay'ati a'zosi (1923–26).

4-BILET

1. “Anqara jangi” va uning oqibatlarini Yevropa taraqqiyotiga ta'siri haqida ma'lumot bering.

Amir Temur bilan Sulton Boyazid qo'shinlari o'rtasidagi hal qiluvchi jang 1402-yil 20-iyulda Anqara yaqinida, Chubuq mavzeyida sodir bo'ladi. Bu jang tarixda “Anqara jangi” deb ataladi. Uzoq davom etgan shiddatli jangda Sohibqiron kuchlaritürk qo'shinini tor-mor etadi. Sulton Boyazid asirga olinadi. Boyazid ustidan qozonilgan buyuk g'alaba bilan Amir Temurni Fransiya, Angliya hamda Kastiliya va Leon qirollari tabriklab, unga o'z muboraknomalarini yuboradilar. Chunki Sohibqiron endigina uyg'onayotgan Yevropaga ulkan xavf solib turgan Usmonli turklar davlatiga zarba berib, butun Yevropaning xaloskoriga aylangan edi.

2. Minorayi Kalon me'moriy yodgorligi va ushbu inshootning vazifasi haqidama'lumot bering.

Minorayi kalon (Katta minora) Buxoro shahrida bunyod etilgan eng go'zal me'moriy yodgorliklardan biri. Uni Movarounnahr hukumdori Arslonxon 1127- yilda qurdirgan. Minoraning poydevori yer sathidan 9 metr chuqurlikda bunyod etilgan. U tosh va maxsus qorishmadan ko'tarilgan. Balandligi 50 metr bo'lgan pishiq g'ishtdan terilgan bo'lib, yuqori qismi atrofni kuzatish maqsaida 16 ta darcha ochilgan. Minora tepasiga uning ichiga qurilgan 104 ta aylanma zina orqali chiqaldi. Ushbu minora hamon ham savlat to'kib, qad ko'tarib turibdi.

3. Turkiy adabiyot namoyondasi Yusuf Xos Hojib hayoti va faoliyati.

Yusuf Xos Hojib (Bolasog'unii) ilk türk dostonnavisi Bolasog'unda tug'ilgan, qoraxoniylar saroyida xizmat qilgan. Hijriy 462 (m.1069-70)da yozib tugallangan «Qutadg'u bilig» («Saodatga boshlovchi bilim») asari qoraxoniylar davlatining mustahkam qaror topishiga xizmat qilgan nizomnomadir. Uch nusxasi (Vena, Qohira va Namangan) mavjud. Nisbatan to'lig'i Namangan nusxasi bo'lib, 1923 yili Fitrat tomonidan qo'lga kiritilgan, u O'R FA SHI da saqlanadi. 6329 baytdan iborat, masnaviy (ya'ni aruzning «mutaqoribi musammani mahzuf») vaznida yozilgan. Yusuf Xos Hojib (asl ismi Yusuf) (taxminan 1020/21, Bolosog'un — turkigo'y shoir, mutafakkir, davlat arbobi. "Qutadg'u bilig" dostoni muallifi. Uning hayoti va faoliyati haqida ma'lumotlar beruvchi yagona manba ham "Qutadg'u bilig" kitobidir. Ushbu kitobga ko'ra, u zamonasining barcha asosiy ilmlarini atroflicha o'rgangan, arab va fors tillarini mukammal bilgan. Mahmud Koshg'ariy kabi turkiy tilning mavqeini oshirish, uning madaniyadabiy hayotdan o'ziga munosib o'rin egallashi uchun kurashgan.

5-BILET

1. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasini o'tkazilishi va undagi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning nutqi haqida ma'lumot bering.

23 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining yetmish beshinchi yubiley sessiyasining yuqori darajadagi umumsiyosiy munozaralarida ishtirok etadi. Ushbu chiqishning tarixiy ahamiyati shundaki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashkil etilgani va unga O'zbekiston a'zo bo'lib kirgandan buyon ilk bor tashkilot minbarida O'zbekiston rahbari o'zbek tilida nutq so'zlaydi.

Bosh Assambleyaning markaziy tadbirlari jahonda vujudga kelgan epidemiologik vaziyat

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!

munosabati bilan BMT tarixida ilk bor videoanjuman shaklida bo‘lib o‘tmoqda.

Davlat rahbari sessiyaning yalpi qismida so‘zga chiqib, xalqaro hamjamiyat e‘tiboriga mintaqaviy va global ahamiyatga ega dolzarb masalalar yuzasidan o‘z nuqtai nazarini taqdim etadi hamda O‘zbekistonni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab beradi.

Muhokamalarning asosiy mavzusini hisobga olib, koronavirus pandemiyasiga qarshi birgalikda kurashish va kasallik tarqalishining salbiy oqibatlarini yengib o‘tish masalalariga to‘xtalib o‘tiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti mintaqada va global miqyosda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, barqaror taraqqiyot, inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash, konstruktiv muloqotni kengaytirish, shuningdek, iqlim o‘zgarishi, oziq-ovqat xavfsizligi muammosi, qashshoqlikka barham berish va kambag‘allikni qisqartirish masalalari kabi zamonaviy xatar va tahdidlarga qarshi qaratilgan qator muhim tashabbuslarni ilgari surishi kutilmoqda.

Ta‘kidlash joizki, davlat rahbari 2017 yil sentyabr oyida Nyu-York shahrida bo‘lib o‘tgan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida ham qator muhim taklif va fikr-mulohazalarini bayon etgan edi.

BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida O‘zbekiston Prezidenti tomonidan ilgari surilgan va amalga oshirilgan tashabbuslar:

“Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik” mavzuida Afg‘oniston bo‘yicha yuqori darajadagi Toshkent xalqaro konferensiyasi tashkil etildi (2018 yil 27 mart);

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining birinchi maslahat uchrashuvlari o‘tkazildi. BMT Bosh Assambleyasining “Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta‘minlash bo‘yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash” rezolyutsiyasi qabul qilindi (2018 yil 22 iyun);

Orolbo‘yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘pshiriklik Trast jamg‘armasiga asos solindi (2018 yil 27 noyabr);

BMT Bosh Assambleyasining “Ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik” haqidagi rezolyutsiyasi qabul qilindi (2018 yil 12 dekabr);

Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya loyihasi ishlab chiqildi. U inson huquqlari bo‘yicha ikkinchi Samarqand veb-forumida muhokama qilindi (2020 yil 12-13 avgust).

2017 yil sentyabr oyida BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida Prezident nutq so‘zlab, dunyo hamjamiyati e‘tiborini yana bir bor bugungi kunning eng o‘tkir ekologik muammolaridan biri — Orol halokatiga qaratdi.

Davlat rahbari dengizning qurishi bilan bog‘liq oqibatlarni bartaraf etish xalqaro miqyosdagi sa‘y-harakatlarni faol birlashtirishni taqozo etayotganligini ta‘kidladi. 2018 yil 27 noyabrda Orolbo‘yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘pshiriklik Trast jamg‘armasi tashkil etildi.

2017 yil sentyabr oyida BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida Prezident Shavkat Mirziyoyev nutq so‘zlab, Afg‘onistonda tinchlikka erishishning yagona yo‘li — markaziy hukumat va mamlakat ichidagi asosiy siyosiy kuchlar o‘rtasida oldindan hech qanday shart qo‘ymasdan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot olib borish zarurligini ta‘kidladi.

2018 yil 27 mart kuni "Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik" mavzuida Afg‘oniston bo‘yicha yuqori darajadagi Toshkent xalqaro konferensiyasi bo‘lib o‘tdi.

BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida Prezident Shavkat Mirziyoyev nutq so‘zlab,

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo‘ling!

keng jahon jamoatchiligiga Islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazish muhimligini ta'kidladi.

Davlat rahbari sessiyada BMT Bosh Assambleyasining "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklifi bilan chiqdi.

Hujjatning asosiy maqsadi — barchaning ta'lim olish huquqini ta'minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko'maklashishdan iborat.

BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida Prezident Shavkat Mirziyoyev nutq so'zlab, "O'zbekiston bugungi kunda o'zining tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasiga ustuvor ahamiyat qaratmoqda", — deya ta'kidlagan edi.

2018 yil 22 iyun kuni BMT Bosh Assambleyasi yalpi majlisida "Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash" rezolyutsiyasi qabul qilindi.

BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida Prezident nutq so'zlab, yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olish ahamiyatini ta'kidladi.

Shu munosabat bilan, O'zbekiston globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat — BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif etadi.

2. Mir Arab madrasasi va uning o'lkamiz me'morchiligidagi o'rni haqidama'lumot bering.

Mir Arab madrasasi Shayx Abdulla YAmaniy tomonidan 1520-1536-yillar oralig'ida bunyod etilgan. Madrasa chor islubida qurilgan. Madrasaning umumiy tarxi 68,5x51,8 m ovli, 35,4x31,3 m darsxona 8x8, hovli 114 ta hujradan iborat. Madrasaning asosi chuqur qilinib, tog'-toshlari bilan mustahkamlangan. Uning go'rxonasida Uboydullaxonning yog'ochdan yasalgan sag'anasi va Mir Arab, uning qarindoshlari qabrlari bor. Shurolar davrida uning faoliyati vaqtincha to'xtatilganiga qaramay 1945-yil yana tiklandi. Mustaqillik yillarida Buxoroning 2500 yilligi munosabati bilan madrasa peshtoqi va gumbazlaridagi to'kilib ketgan koshinkor naqshlari va yozuvlar qayta tiklangan.

3. Amir Temur buyuk davlat arbobi va yetuk sarkarda.

Amir Temur o'z davlatining shon-shurati uchun uning markaziy qismi bo'lgan Mavarunnahrning, ayniqsa poytaxti Samarqandning obodonligiga alohida ahamiyat bergan. Mo'g'ullar bosqini davomida butunlay vayron etilgan Samarqand shahri Amir Temur davrida o'zining qadimgi o'rnidan birmuncha janubroqda qayta qurilgan. Shahar tevaragi Ohanin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh, So'zangaro va Feruza kabi nomlar bilan yuritiluvchi oltita darvozali mustahkam yangi qal'a devor bilan o'rab chiqilgan. Shahar arkida Ko'ksaroy va Bo'stonsaroy bino qilingan.

6-BILET

1. Ismoil Somoniy davlatining tashkil topishi va uning o'ziga xos davlat boshqaruvi haqida ma'lumot bering.

Somoniy davlati (875-999) — Movarounnahr va Xurosondagi o'rta asr davlati. Somoniy davlatining tashkil topishi Arab xalifaligining qulashi hamda Movarounnahr va Xurosonni bosib olgan Somoniylarning davlat tepasiga chiqishi bilan bog'liq. Ravnaq topgan davrida Movarounnahr, Xuroson, Shimoliy va Sharqiy Eronni o'z ichiga olgan.

Arab xalifasi Horun ar-Rashid vafotidan so'ng uning o'g'illari Ma'mun va Amin o'rtasida taxt

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!

uchun bo'lgan kurashda Ma'munga yordam berganliklari uchun Somonxudotning nabiralari ayrim shahar va viloyatlarga noib qilib tayinlanadilar. Chunonchi, Nuhga Samarqand, Ahmadga Farg'ona, Yahyoga Shosh va Ustrushona, Ilyosga Hirot tegadi. Buning evaziga aka-uka Somoniylar Movarounnahrning har yilgi xirojidan juda katta mablag'ni tohiriylar orqali xalifa xazinasiga yuborib turadilar. 9-asrda Movarounnahrning siyosiy hayotida o'zgarishlar yuz berib, yurtgaavval Nuh, so'ngra Ahmad boshchilik qiladi. Har biri hukmronligi davrida o'z nomlaridan chaqa tangalar zarb ettiradilar. Ahmad vafotidan (865) keyin uning o'g'li Nasr Samarqandni markazga aylantiradi. U Movarounnahrning barcha viloyatlarini birlashtirish va uni Xurosondan ajratib olish choralarini ko'radi. 9-asrning oxirgi choragida Movarounnahrning deyarli barcha viloyatlari somoniylar tassarufiga o'tadi. Nasr butun Movarounnahrning hukmdoriga aylanadi va kumush dirham zarbetadi. Ko'p o'tmay aka-uka Nasr va Ismoil o'rtasida toj-taxt uchun kurash boshlanadi. Unda Ismoil g'olib chiqadi. Ismoil Somoniy 888-yilda butun Movarounnahrni o'z qo'l ostiga birlashtirdi va mustahkam davlat tuzishga intildi. Shimoli sharqiy hududlarga yurish qiladi va 893-yilda Taroz shahrini zabt etib, dashtliklarga qaqshatqich zarba beradi. Movarounnahr aholisining mustaqillikka erishishi Arab xalifalariga yoqmas edi. Shu boisdan xalifalik safforiylar bilan somoniylarni to'qnashtirishga va ularning har ikkisini ham zaiflashtirib, bu boy viloyatlarda o'z ta'sirini qayta tiklashga qaror qiladi. Xalifa Mu'tazid safforiylar hukmdori Amr ibn Laysga Xuroson bilan birga Movarounnahr ustidan ham hukm yuritish huquqiberilgani haqida farmon chiqaradi va uni Ismoilga qarshi gijgijlaydi. Natijada 900- yilda ular o'rtasida urush boshlanib, Ismoilning g'alabasi bilan tugaydi. Butun Xuroson somoniylar qo'l ostiga o'tadi. Noilojlikda xalifa Ismoilga hukmdorlik yorlig'ini yuborishga majbur bo'ladi. Ismoil Somoniy butun Movarounnahr va Xurosonni o'z qo'l ostida birlashtiradi va Buxoro shahri bu ikki davlatning poytaxtiga aylanadi.

2. Muhammad Rahimxon madrasasi haqida ma'lumot bering.

Kattaligi jihatdan Muhammad Aminxon madrasasidan keyingi o'rinda Muhammad Rahimxon madrasasi turadi. U qo'ng'irotlar sulolasiga mansub bo'lgan Xiva xoni Muhammad Rahim II tomonidan Ko'hna arkning sharqiy darvozasi qarshisida 1871-yil bunyod etilgan. Muhammad Rahimxon (1847-1910) Xivaning ma'rifatparvar xonlaridan biri bo'lib, 1864-1910-yillarda hukmronlik qilgan, "Feruz" taxallusi bilan she'rlar yozgan. Uning nomi bilan atalgan madrasa yozgi vaqishki masjid, darsxona, kutubxona va hujralardan iboratdir. Binoning old tomoni ikki qavatli, qolgan tomonlari bir qavatli. Bino burchaklarida burjlar ishlangan, sirti sirkor parchinlar bilan bezatilgan. Uning umumiy tuzilishi Xivaning boshqa madrasalaridan biroz farq qiladi. Xushqad peshtoqning ikki yonida besh ravoqli galereyalari bor. Darvozaxona atrofidagi 9 ta xonaning usti gumbazlar bilan yopilgan. Binoning ichki tuzilishi ham boshqa madrasalardan biroz farq qiladi. Hovli 76 ta bir qavatli hujralar bilan o'ralgan, tashqi ayvonning ko'cha tomoni pastdevor bilan to'silgan. Janubida gumbazli ayvon va boshqa qo'shimcha xonalar bor. Keyinroq, madrasaning old tomoniga bir qavatli savdo rastalari qatoridan iborat hovli qurilgan. Madrasaning umumiy tuzilishi va ichki tarhi an'anaviy Xiva madrasalari me'morchiligidan biroz farq qiladi. Uning umumiy tarhi – 62,4x49,7 m; hovli – 28,3x28,8 m; darsxona – 5,4x5,4 m; masjid – 7,0x7,0 m; savdo qatorlari – 25,0x50,0 m; hovli – 16,9x42,5 metrni tashkil etadi. Madrasani bunyod etishda har xil o'lchamdagi g'isht va toshlardan, loy, yog'och, tunuka, sement, marmar, turli xilqimmatbaho toshlar va shunga o'xshash mahsulotlardan keng foydalanilgan. Me'moriy inshoot Sharq me'morchiligining yorqin namunasi hisoblanadi. U "Chor", gumbazsimon uslubda bunyod etilgan. Me'moriy inshoot mustaqillikkachava mustaqillikdan keyin bir necha bor ta'mirlandi va u YUNESKO

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!

tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritildi. Xiva shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Xiva shahridagi boshqa me'moriy obidalar qatorida Muhammad Rahimxon madrasasi ham ta'mirlandi. Me'moriy obida atroflari ko'kalamzorlashtirilgan holatga keltirildi. Madrasa afsonaviy ko'rinishini Ichanqal'a shahri tarixiy markazida saqlab qolgan bo'lib, 1990-yilda Xivadagi "Ichan qal'a" Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan.

3. Ahmad Donish hayoti va faoliyati.

Ahmad Donish Maxdum Ibn Nosir (taxallusi Kalla; 1826 – Buxoro – 1897) –yozuvchi, rassom, xattot, olim, ma'rifatparvar. 19-asrda Buxoro taraqqiyparvar muhitining yuzaga kelishida muhim o'rin tutgan. Tojik tilida ijod qilgan. Mudarris oilasida tug'ilgan. Ahmad Donish boshlang'ich savodni onasidan olgan, so'ng maktabda, madrasada tahsil ko'rgan. Adabiyot, tarix, falsafa, tibbiyot, mat., astronomiya ilmini mustaqil o'rgangan. Xattotlik, rassomlik va naqqoshlikni yaxshi bilgan, munajjimlikdan yaxshi xabardorligi bilan Nasrumaxon nazariga tushgan. 1857, 1869, 1873 yillarda Buxoro amiri elchilarining mirzasi bo'lib, Rossiya (Peterburg) ga borgan. Safar taassurotlari asosida "Navodir ul-vaqoye'" ("Nodir voqealar") va "Tarjimai ahvoli amironi Buxoro" ("Buxoro amirlarining tarjimai hollari") kabi asarlar yozgan. Ularda amirlik tuzumini isloh qilish masalasini ko'gargan. Ahmad D. "Nodir voqealar" asarida fan, texnika yangiliklari, tabiat hodisalari, geogr., insonning uzoq umr ko'rishi, koinotning kelib chiqishi, Oy va Quyosh tutilishi, zilzila haqida fikr yuritgan, Yevropa ilm-fanini o'rganishga da'vat etgan. "Risolai tarixiy" nomi bilan mashhur bo'lgan "Ta'rix-i saltanati xonadoni mang'itiya" asarida mang'itlar sulolasining 100 yillik hukmronligi taxlil va tadqiq qilingan.

7-BILET

1. Xiva xonligining tashkil topishi va uning davlat boshqaruvida Buxoroxonligidan farqli jihatlari.

Temuriylar tasarrufida bo'lgan Xorazm hududini Shayboniyxon 1505 yilda bosib olgan. Shayboniyxon vafoti (1510 yil) dan keyin Xorazm Eron safaviylari qo'l ostiga o'tdi. Ularga qarshi xalq qo'zg'oloni bo'lib, unga Vazir qal'asi qozisi Umar va Baqirg'on qishlog'idan mulla Sayd Hisomiddin boshchilik qildi. Ikki yil davom etgan kurashlar natijasida eroniylar mamlakatdan quvib chiqarilgan va xorazmliklar taklifi bilan 1511 yilda Vazir shahrini egallagan shayboniylardan Elbarsxon Xorazmhukmdori deb tan olingan.

1512 yilga kelib xonlik hokimiyati ko'chmanchi o'zbeklarning boshqa urug'i (shajarasi) rahbari Ilbarsxon qo'lga o'tadi. Shu vaqtdan boshlab Xiva xonligi yuzaga keladi, uning poytaxti turli yillarda Vazir, Qo'hna Urganch va Xiva shaharlari bo'lgan. Xonlik tarkibiga Xorazmdan tashqari Mang'ishloq, Balxan tog'lari, Dehiston, O'zboy(Uzboy) va O'rta Xuroson hududlari kirgan. Elbarsxon (1511—16) bilan birga Dashti Qipchoqdan Xorazmga kelgan qabilalar o'troqlashganlar. Uning davrida xorazmliklar Turkmanistonning janubiy qismi, Eron shimolidagi Saraxs, Orol va Mang'ishloqni egallashgan. Yangi yerlarni Elbarsxon o'g'illari va ukasi, qarindoshlariga bo'lib berishi natijasida mayda hokimliklar paydo bo'lgan. Elbarsxon vafotidan keyin uzluksiz o'zaro nizolar sababli xonlar tez-tez almashib turgan. 16-asrda Xiva xonligini Sulton Hojixon (1516), Husaynqulixon (1516), So'fiyonxon (1516—22), Bujaqaxon (1522—26),

Avaneshxon (1526—38), Alixon (1538—47), Akatoyxon (1547—56), Yunusxon (1556—57), Do'stxon (1557—58), Hoji Muhammadxon (1559—1602) lar boshqarganlar. Bu davrda xalq, Elbarsxon avlodlari o'rtasidagi o'zaro qirg'inlaridantashqari Buxoro va Xiva xonligi o'rtasida urushlar azobini ham tortishga majbur bo'lgan. Buxoroliklar Ubaydullaxon

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!

va Abdullaxon II hukmronlik davrlarida (1537—38; 1593; 1595—98) Xorazmga hujumlar qilib, qisqa vaqt Xiva xonligini Buxoroga bo'ysundirganlar. Bu urushlar va 16-asrning 70-yillarida Amudaryo o'zanining o'zgarib, Kaspiy dengiziga oqmay qo'yganligi ham Xorazm iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

2. “Qatag'on qurbonlari xotirasi” memorial majmuasi haqida ma'lumot bering.

Vatan ozodligi yo'lida halok bo'lganlarning nomi hech qachon unutilmaydi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach ularning qutlug' nomlari, sha'nlari to'la tiklandi. Bu ishga shaxsan Yurtboshimiz Islom Karimov rahbarlik qildi. U kishining tashabbusi bilan 2000-yilda Toshkentda «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuyi bunyod etildi.

2002-yilda esa shu majmuaning tarkibiy qismi sifatida, «Qatag'on qurbonlari xotirasi» muzeyi barpo etildi. Shu tariqa Vatan ozodligi yo'lida halok bo'lganlar xotirasi abadiylashtirildi.

3. Xoja Bahouddin Naqshbandiy – naqshbandiya tariqatining asoschisi.

Bahouddin Naqshbandiy asl ismi Muhammad binni Muhammad Bahouddinan-Naqshbandal-Buxoriy (ko'proq Bahouddin yoki Xo'ja Bahouddin, Balogardon, Xo'jai Buzruk, Shohi Naqshband nomlari bilan mashhur) (1318 – Buxoro viloyati, hozirgi Kogon tumani – 1389) – mashhur avliyo, naqshbandiya tariqatining asoschisi. Bahouddin Naqshbandiy xalq orasida “Balogardon” (ya'ni duo 6-n baloqazoni daf qiluvchi) unvoni bilan ham mashhur. o'z ta'limotini yaratishda YusufHamadoniy va Abduholiq G'ijduvoni nazariyalariga asoslangan. Ta'limotining asosida “Dilba yor-u, dast-ba kor” (“Ko'ngil Xudoda bo'lsin-u, qo'l ish bilan band bo'laversin”) degan shior yotadi.

8-BILET

1. Turkiston Muxtoriyati hukumatining tashkil topishi va uningmilliymustaqillik yo'lidagi harakatlari.

Qo'qonda bo'lib o'tgan Butun Turkiston musulmonlarining favqulodda 4- qurultoyi (1917-yil 26—28 noyabr)da tashkil topgan. Qurultoy Turkiston o'lkasini Rossiya Federativ Respublikasi tarkibida hududiy jixatdan muxtor deb e'lon qildi. Shuningdek, ta'sis majlisi chaqirilgunga qadar hokimiyatni Turkiston Muvaqqat kengashi va Turkiston Milliy Majlisi qo'lida bo'lishi kerak deb hisobladi. Markazi

Qo'qon shahri. Qurultoyda Turkiston Muvaqqat Kengashi a'zolaridan Turkistonmuxtoriyati hukumati (8 kishidan iborat) tuzildi. Yevropalik aholi vakillari orasidannomzodlar ko'rsatilishi uchun ularga ham yana 4 o'rin ajratildi. Hukumat tarkibiga Muhammadjon Tinishboyev (Bosh vazir va ichki ishlar vaziri), Islom Shoahmedov (Bosh vazir o'rinbosari), Mustaf Cho'qay (tashqi ishlar vaziri), Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev (harbiy vazir), Hidoyatbek Agayev (yer va suv boyliklari vaziri), Obidjon Mahmudov (oziq-ovqat vaziri), Abdurahmon O'razayev (ichki ishlar vazirining o'rinbosari), Solomon Gersfeld (moliya vaziri) kiritildi.

2. Ichanqal'a me'moriy yodgorligining o'ziga xos vazifasi haqida ma'lumotbering.

O'rta Osiyodagi yirik va noyob me'moriy yodgorlik. Xivaning ichki qal'a(Shahrison) qismi. Ichan qal'a shaharning Dishan qal'a (tashqi qal'a) qismidan kungurador devor bilan ajratilgan. U Xiva raboti (Dishan qal'a)dan baland qo'rg'ontepaga o'xshab ko'rinadi. Ichan qal'aga 4 darvoza (Bog'cha darvoza, Polvon darvoza, Tosh darvoza, Ota darvoza)dan kirilgan.

Xorazm xalq me'morligining ajoyib obidalar: madrasa, masjid, saroy va minoralar,asosan, Ichan qal'ada. Undagi me'moriy yodgorliklarning yara-tilish tarixi, asosan,

4 davrga taal-luqli: birinchisi Xorazmning qad. davridan to mo'g'ullar istilosi davriga qadar, bu davrdan Ko'qna arkning g'arbiy devori, qal'a devorining shim.sharqiy burchagidagi qad. davrga mansub burj va qal'a devori qoddiqlari saklanib qolgan. Ikkinchisi Xorazmning 1220

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!

yildagi mo'g'ullar istilosidan keyin tiklanish davri. Bu davrda Sayid Alovuddin maqbarasi va b. mahobatli binolar qurilgan. Uchinchi davri 16—17-asrlarga to'g'ri keladi. Shu paytda (Abulg'ozixon va Asfandiyorxon hukmronlik davri) Ichon qal'ada Anushaxon hammomi (1657), peshayvonli Oq masjid (1675), Xo'jamberdibek madrasasi (1688) kabilar bunyod etildi, Ko'hna ark istehkomlari mustaqkamlandi, ko'rinishxona (xonning qabulxona-si) qurildi (1686—88). Buxoro bilan Eron o'rtasida Xiva xonligi uchun boshlangan urush natijasida (18-asrning 1-yarmi) Ichon qal'a va, umuman, Xiva sh.qattiq shikastlandi (Xiva bir qancha vaqt Eronga tobe viloyat bo'lib turdi).

3. Asrlarga tatigan daholik – Abu Ali ibn Sino hayoti va faoliyati.

Abu Ali ibn Sino olim, faylasuf. 980-yilning 18-iyunida Buxoro yaqinidagi Afshonaqishlog'ida tug'ilgan va 1037-yilning 16-avgustida Hamadonda vafot etgan. G'arbda Avitsenna (ingl. Avicenna) ismi bilan mashhur.

Ibn Sinoning tib ilmida yuksak mahoratga erishishida buxorolik boshqa bir tabib Abu Mansur alhasan ibn Nuh al-Qumriyning xizmati katta bo'ldi. Ibn Sino undan tabobat ilmini olib, bu ilmning ko'p sirlarini o'rgangan. Qumriy bu davrda ancha keksayib qolgan bo'lib, 999 yilda vafot etdi.

Ibn Sino 17 yoshdayoq, Buxoro xalqi orasida mohir tabib sifatida tanildi. O'sha kezlarda hukmdor Nuh ibn Mansur betob bo'lib, saroy tabiblari uni davolashdan o'zib edilar. Dovrug'i butun shaharga yoyilgan yosh tabibni amirni davolash uchun saroyga taklif qiladilar. Uning muolajasidan bemor tezda sog'ayib, oyoqqa turadi. Evaziga Ibn Sino saroy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatiga egabo'ladi. Somoniylarning kutubxonasi o'sha davrda butun O'rta va Yaqin Sharqdagieng katta va boy kutubxonalardan sanalardi. Ibn Sino bir necha yil davomida shu kutubxonada kechayu kunduz mutolaa bilan mashg'ul bo'lib, o'z davrining eng o'qimishli, bilim doirasi keng kishilaridan biriga aylandi va shu paytdan boshlab o'rta asr falsafasini mustaqil o'rganishga kirishdi.

9-BILET

1. "Loy jangi" haqida ma'lumot bering.

Loy jangi — Amir Temur va amir Husayn ibn Musallabning Jeta (Mo'g'uliston) xoni Ilyosxo'jaga qarshi jangi (Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"siga ko'ra 1360 y. 16 iyunda, Sharafiddin Ali Yazdiynit "Zafar-noma"siga binoan esa 1365 y. 22 mayda bo'lib o'tgan). 1361 y. Amir Temur va amir Husayn mo'g'ullar istilosiga qarshi bosh ko'tarib, 3 yil davom etgan janglardan so'ng, nihoyat 1364 y. oxirida ularni Movarounnahr hududidan quvib chiqarishga muvaffaq bo'lishadi. Biroq, 1364 y. bahorida Ilyosxo'ja Movarounnahrda katta qo'shin bilan yurish qiladi. Shunda Amir Temur va amir Husayn Toshkent bilan Chinos oralig'ida, Chirchiq daryosi bo'yida unga qarshi lashkar to'playdi. Ilyosxo'ja Konibodom tomonidan ularga yaqinlashib kelgach, ikki taraf lashkarlari qarama-qarshi saf tortadi. Amir Husayn qo'shinning barang'arshta, uning qunbuliga esa arlot qabilasidan Tilonchi, hirovuliga O'ljaytu qo'mondonlik qiladi. Juvang'arta Amir Temur, uning qunbuliga qipchoq qavmidan Sori Bug'o, hirovuliga Temir Xo'ja O'g'lon bosh bo'ladi. G'ulyaa Joku, Sayfuddin, Murod, Abbas Bahodir kabi atoqli amir va beklar jangga hozir turadi. Amir Temur va amir Husaynning birlashgan bu qo'shini son jihatdan dushman lashkaridan ancha ko'p edi. Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, shunda Ilyosxo'ja halol jangda g'olib kelolmasligini payqab, bir hiyla ishlatadi: yadachi yada toshi yordamida kuchli jala yog'diradi. Natijada jang maydoni loylanib, Amir Temur va amir Husayn qo'shini mushkul ahvolda qoladi, kiyim-kechak, qurol-yarog'lar shu darajada namiqib ketadiki, o'tliqning ham, piyodaning ham qimirlashga majoli

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!

yetmaydi (shu bois bu jang tarixda J. l. nomi bilan mashhur).

2. Toshkentdagi Ko'kaldosh madrasasi va uning ilm-fan rivojidagi roli haqidama'lumot bering.

Ko'kaldosh madrasasi — O'zbekistonning Toshkent shahridagi me'morlik yodgorlik. Shahar markazining Chorsu maydonida joylashgan. Qulbobo ko'kaldosh qurdirgan (1551—1575). Madrasa (umumiy o'lchami 62,7X44,9 metr) bosh tarzi janubga qaragan. Darvozadan kiraverishda chapda masjid, o'ngda darsxona joylashgan. Masjid va darsxonalarining tomi o'zaro kesishgan ravoqlar ustiga o'rnatilgan gumbazlardan iborat. Miyonsaroy 7 gumbazli. Chorsi hovlisi keng (38X26,9 metr), hujralar va ochiq ayvonlar bilan o'ralgan. Hovlining atrofidagi hujralar 38 ta bo'lib, darsxona va masjid bilan o'zaro bog'langan. Madrasa dastlab 3 qavatli bo'lgan. Me'morlar madrasani bezashda, asosan, binoning old tomoniga e'tibor berishgan. Peshtoqi bilan birga balandligi 19,73 metr bo'lib, sirkor parchin va girih naqshlar bilan bezatilgan. Bosh tarzining 2 burchagidagi guldastalar tepasi qafasa bilan yakunlangan. Ko'kaldosh madrasasi XVIII asr boshlarida qarovsiz holga kelib qolgan va karvonsaroy ombori sifatida foydalanilgan. 1886 va 1946-yillardagi zilzilalar oqibatida vayron bo'lgan. Bir necha bor ta'mirlanishi natijasida madrasaning tashqiko'rinishi o'zgarib ketgan. Ko'kaldosh madrasasi hujralaridan birida Furqat (1889—1891) va Hamza (1910—1911) istiqomat qilishgan, shoir Hislat va boshqalar tahsil olgan. Madrasaning old tomoniga an'anaviy usulda zinapoya ishlangan. 1998-yildanbinoning muhandislik ustuvorligini ta'minlash, tashqi va ichki tarzlarini asl holiga keltirish va atrofni obodonlashtirish ishlari olib borilgan. Ko'kaldosh madrasasi O'zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufida (1991-yildan). Binoda shu idoraga qarashli o'rta maxsus islom bilim yurti joylashgan.

3. Abdulla Avloniy — o'zbek milliy maktabi asoschisi.

Abdulla Avloniy 1878-yil Toshkent shahrida hunarmandlar oilasida tug'ilgan. U maktab va madrasada ta'lim olib, o'z zamonining ma'rifatli va chuqur bilim sohibiga aylandi. Abdulla Avloniy o'lkada ta'lim, matbuot, teatr sohalarining rivojlanishiga katta hissa qo'shib, 1907-yil "Shuhrat" gazetasi asos soldi. O'zitashkil qilgan yangi usul maktabi uchun "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy guliston" yoxud "Axloq" darsliklarini yaratgan.

10-BILET

1. Shayboniylar davlatining tashkil topishi va unda davlat boshqaruviningo'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot bering.

Tarixdan ma'lumki, XI-XVI asrlarda g'arbda Dnepr daryosi va Qora dengiz, shimoli-sharqda Irtish daryosi va Balxash ko'ligacha, janubda esa Xorazm va Sirdaryoning quyi oqimlari oraliqidagi yerlar Dashti Qipchoq deb yuritilgan. Bu hududda dastlabJo'ji ulusi norai bilan Oltin O'rda xonligi tashkil etilgan.

XIV asr oxirlarida Oltin O'rda xonligi Amir Temur tomonidan tor-mor etilganidan so'ng parchalanib, bir necha xonliklarga bo'linib ketdi. Volga daryosining o'rta va quyi oqimlarida Qozon va Ashtarxon (Hojitarxon) xonliklari, Qrim yarim orolida Turkiya ta'sirida bo'lgan Qrim xonligi vujudga keldi. Dashti Qipchoqning sharqiy qismida esa Oq O'rda tashkil topdi. Bu katta hududda qiyot, mang'it, do'rmon, qushchi, o'rtachi, nayman, tuba, toyraas, jot, xitoy, uyg'ur, qorluq, ushun (usun), karlavut, ichki, ming, tan gut, qo'ng'irot va boshqa qabilalar yashagan. Bu ulus O'zbeklar davlati, uning aholisi «o'zbeklar» deb atalgan.

Dashti Qipchoqning sharqiy qismi, ya'ni Oq O'rdada shayboniylardan bo'lgan Abulxayrxon (1428-1468) tarqoq bo'lgan mayda xonliklarni birlashtirib, katta davlatga asos soldi. Keyinchalik mang'it urug'lari ham Abulxayrxon qo'l ostiga birlashtirildi. Qozoq urug'lari XV

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!

asrning 40-yillarida Abulxayrxonga bo'ysunishdan bosh tortib Chu va Yettisuv vohasiga ko'chib ketdilar va keyinchalik Qozoq xonligiga asos soldilar (1465).

Dashti Qipchoqda siyosiy tartibsizliklar, katta yer egalari bilan dehqonlar va chorvadorlar o'rtasida ichki ziddiyatlar kuchayishi natijasida davlat zaiflashib bordi. Ana shunday sharoitda hokimiyatni qo'lga olgan Abulxayrxonning nabirasi Muhammad Shayboniyxon (1451-yilda tug'ilgan, yoshlik yillarida Samarqand va Buxoro madrasalarida o'qigan) Dashti Qipchoqdagi qabilalarni birlashtirib, davlat hokimiyatini yanada mustahkamlaydi.

Amir Temur vorislari o'rtasida olib borilgan to'xtovsiz feodal urushlar temuriylar davlatining kuchsizlanishiga olib keldi va birin-ketin ular qaramidagi davlatlar va mulklar ajralib chiqib ketdi. Xorazmdan Astrobodgacha bo'lgan keng raasofada joylashgan turkmanlar bir necha qabilalardan tashkil topgan bo'lib, ko'pincha o'zarokelisha olmas edilar. Lekin ular qulay vaziyatdan foydalanib Temuriylar davlatidan ajralib chiqdilar. Farg'ona vodiysi ham ajralib mustaqil davlat tashkil etdi. Bundan tashqari forsiy dehqon aholi joylashgan Hisor va Badaxshon ham mustaqil davlatga aylandi. Movarounnahrda temuriy hukmdorlarning o'rnini Abulxayrxonning nevarasi Shayboniy asos solgan o'zbeklar davlati egalladi.

Temuriylar davlatining zaiflashganligi, tarqoqlikning kuchayishi va hokimlikka da'vogarlarining o'zaro to'xtovsiz urushlari shayboniylarning Turkistonga hujumi uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. Shayboniyxon XV asr oxirlarida Turkistonga bir necha bor yurishlar qilib O'tror, Sabron, Yassi (Turkiston) shaharlarini bosib oldi. U 1499-1507-yillarda Buxoro, Samarqand, Toshkent, Shohruhiya, Farg'ona, Qunduz, Xorazm, Balx va Hirotni ishg'ol qilib, Movarounnahr va Xurosonda o'z hokimiyatini o'rnatdi.

2. "G'alaba bog'i"ning bunyod etilishi va uning yoshlar ongida tarixiy tafakkurni rivojlantirishdagi o'rni haqida ma'lumot bering.

G'alaba bog'i 2020-yil 9-may kuni, fashizm ustidan qozonilgan ikkinchi jahon urushidagi g'alabaning 75 yilligi munosabati bilan Toshkent shahrining Olmazor tumanida barpo etilgan. U o'z tarkibiga "Shon-sharaf" davlat muzeyi, "Mangu jasorat" va "Matonat madhiyasi" monumentlarini, tarixiy-badiiy ekspozitsiyalarni jamlagan.

3. Abulg'oziy Bahodirxon faoliyati.

Abulg'oziy Bahodirxon (1603.23.8, Urganch-1663. 4, Xiva) – Xiva xoni (1643–1664), shayboniylar sulolasidan, tarixchi va tabib. Abulg'oziy Bahodirxon yirik tarixchi olim sifatida ham e'tiborga sazovor. Uning "Shajarayi tarokima" va "Shajarayi turk" asarlari O'zbekiston, umuman O'rta Osiyo tarixiga oid qimmatli manbalardan hisoblanadi. Abulg'oziy Bahodirxon tibbiyot ilmiga oid "Manofi'ul inson" ("Insonga foydali narsalar") nomli asar ham yozgan. Mashhur adib, tarixchi olim va davlat arbobi, turkiy xalqlar shajarasining yaratuvchilaridan. Abulg'oziy Bahodirxon Xiva xoni Arabmuhammad oilasida (1603)-tug'ildi. O'n uch yoshligidan (1616)-boshlab, toj-taxt uchun kurashlarda ishtirok etgan. Abulg'oziy 1644-yilda Xorazm taxtini egallaydi, 20 yil hukmronlik qiladi, 1644-yil aprelda vafot etadi. Abulg'oziyning «Shajarayi tarokima» va «Shajarayi turk» nomli tarixiy asari hamda «Manofe'ul-inson» nomli tibbiyotga oid risolasi yetib kelgan.

«Manofe'ul-inson»da 120 dan ortiq xastalik, uni davolash haqida ma'lumot berilgan. «Shajarayi tarokima» (1661) turkman xalqi ajdodlari, «Shajarayi turk» (1663-64) o'zbek urug'lari haqida. «Shajarayi turk» to'qqiz bobdan iborat. Tarixiy voqealar badiiy bo'yoqlar, hayotiy lavhalar orqali tasvirlangan.

11-BILET

1. Qo'qon xonligining tashkil topishi va uning o'ziga xos davlat boshqaruvi haqida

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!

ma'lumot bering.

Norbo'tabiyning o'g'li Olimbek hukmronligi davrida Qo'qonning siyosiy mavqei yanada kuchaygan, harbiy islo-hot o'tkazilgan, Ohangaron vohasi, Toshkent, Chimkent va Sayram tobe etilgan, tashqi savdoga ham e'tibor kuchaytirilgan. 1805 yil davlat rasman Qo'qon xonligi deb e'lon qilinib, Olimbek "xon" unvonini olgan. Olimxonning markazlashgan kuchli davlat tuzish borasida qilayotgan harakatlari ayrim mansabparast zodagonlar guruhida norozilik kayfiyatlarini vujudga keltiradi. Natijada ular Olimxonning safardaligidan foydalanib 1810 yil Qo'qonda "Olimxon Toshkentda o'ldi", degan mish-mish tarqatishadi va uning ukasi Umarbekka toj kiygizadilar. Olimxon bundan xabar topib, Qo'qonga yo'l oladi, biroq u Oltiqush mavzeida otib o'ldirilgan.

Umarxon davrida xonlik hokimiyatini mustahkamlash va kengaytirish choralari ko'rilgan. 1815 yil Buxoro xonligiga qarashli Turkiston, 1817 yil esa O'ratepa bosibolingan. Sirdaryo bo'yida bir qancha harbiy istehkomlar barpo etilgan; sug'orish inshootlarini kengaytirish, kanallar qazish, masjid va madrasalar qurishga e'tibor berilgan. Xususan, Qo'qon, Toshkent, Turkiston, Chimkent, Sayram, avliyoota(hozirgi Jambul)da masjid va madrasalar qurilgan. Mozorlar tartibga solingan. Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligida fan, adabiyot, san'at nisbatan yuksalgan. Bunda uning sevimli xotini – mashhur o'zbek shoirasi Nodirabegimning xizmati katta bo'lgan. Umarxonning o'zi ham "Amiriy" taxallusi bilan o'zbek va tojik tillarida g'azallar yozgan. Umarxon vafotidan so'ng uning 12 yoshli o'g'li Muhammad Alixon taxtga o'tirgan. Xon yosh bo'lganligi uchun davlatni dastlabki davrda onasi Nodirabegim boshqargan. Nodirabegim madaniyat va san'atni rivojlantirishga intilgan. 1826 yil Sharqiy Turkistonda xitoylarga qarshi bosh ko'targan musulmon aholiga yordam berish uchun qo'shin tor-tib borilgan. Natijada Xitoy huku-mati Sharqiy Turkistonning 6 ta shahri (Oqsuv, Qashqar, Yorkend, Xo'tan va boshqalar) dan soliq olish huquqini Qo'qon xonligiga berishga majbur bo'lgan.

Muhammad Alixon xonlik hududini kengaytirishga intilib, Jan. Olay tog' etagidagi Qorategin, Dar-voz, Shug'on, Ro'shon, Vohon beklklarini bo'ysundirgan. Bu davrda xonlikda sug'orish ishlari ancha yo'lga qo'yilgan. Toshkent yaqinida Xonariq kanali qazilgan. Tashqi iqtisodiy-savdo aloqalari ham ancha yaxshilangan. Buxoro amiri Nasrullo (qarang Nasrullaxon) bilan yuz bergan urushda (1840 yil) Muhammad Alixon yengilib, Xo'jandni amir Nasrulloga topshirishga va o'zini uning noibi deb tan olishga majbur bo'lgan. Ammo Buxoro – Qo'qon munosabatlaribundan keyin ham kes-kinlashgan. Natijada 1841 yil noyab. oyida Muhammad Alixon o'z ukasi Sulton Mahmud foydasiga taxtdan voz kechgan. Bu voqeadan xabar topgan amir Nasrullo Qo'qonga bostirib kelib, uni talon-toroj qiladi. U shu qirg'in-barot davomida Muhammad Alini, uning ukasi Sulton Mahmudxonni, onasi Nodirabegimni va boshqa yuqori man-sabdorlarni qatl ettiradi. Amir farmoni bilan Qo'qon xonligi Buxoro noibi tomo-nidan boshqarila boshlangan. Amir noibi Qo'qon xonligi aholisiga og'ir soliqlar yuklaydi. Natijada 1842 yil yozida qo'qonliklar qo'zg'olon ko'taradi, amir Nasrulloga sodiq kishilarning ko'pchiligini o'ldiradilar va Norbo'tabiyning ukasi Hojibekning o'gli Sheralini xon qilib ko'tarishadi. Buni eshitgan Buxoro amiri Qo'qonga qo'shin tortib o'z hukmronligini qayta o'rnatish uchun uni qamal qiladi. Biroq qamalning qirqinchi kuni Xiva xoni Olloqulixonning Buxoro hududiga qilgan hujumi haqidagi xabarni eshitib, orqaga qaytishga maj-bur bo'lgan. Natijada qo'ldan ketgan ko'pgina hududlar (Xo'jand, Toshkent) yana Qo'qon xonligi ixtiyorida qoladi.

Sheralixonning (1842–45) taxtga o'tirishida ko'makchi va xayrixoh bo'lgan qipchoqlardan Musulmonqul mingboshi qilib tayinlangan. Musulmonqul, asosan, harbiy ishlar bilan

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!

shugʻullangan va xon qoʻshinlarining tarkibini koʻproq qipchoq yigitlari bilan toʻldirgan. Musulmonqul oʻz mavqeidan foydalanib, SHERALIXONGA oʻztaʻsirini oʻtkazishga intilgan. Ammo xon bunga yoʻl qoʻymaslikka intiladi. Musulmonqul xondan norozi boʻlib, boshqalarning qoʻli bilan suiqasd uyushtirishga harakat qilgan. 1845 yil Oʻshda xonning soliq siyosatiga qarshi qoʻzgʻolon boshlanadi. Musulmonqul qoʻzgʻolonni bostirishga ketganida, uning sheriklari Olimxonning oʻgʻli murodbekni Qoʻqonga taklif qilib taxtga oʻtqazganlar. SHERALIXON oʻldirilgan. Taxtni saqlab qolish uchun Murodxon oʻzini Buxoro amirining noibi deb tan olishga majbur boʻlgan. Musulmonqulni mingboshi lavozimida qolganligi haqida farmon chiqaradi va uning Qoʻqonga qaytishini talab qiladi. Musulmonqul esa Oʻshdan Namanganga kelib qizini SHERALIXONNING oʻgʻli Xudoyorga turmushga beradi va u bilan Qoʻqonga kelib, Murodxonni oʻldirib, yoʻsh Xudoyorni xon deb eʼlon qiladi (qarang Xudoyorxon). Musulmonqul xonning yoshligidan foydalanib xonlikni deyarli mustaqil ravishda oʻzi boshqaradi, katta lavozimlar qipchoqlarga ulashib beriladi. Natijada Musulmonqulga qarshi xonlik hududida norozilik harakati kuchaydi va u mingboshilikdan boʻshatiladi. Musulmonqul oʻz mavqeiini tiklamoqchi boʻlib, ruslar bilan aloqa oʻrnatishga intiladi va ruslarning vakili V.V.Velyaminov-Zernov bilan 1853 yil bahorida maxfiy uchrashadi. Musulmonqulning rus qoʻmondoni vakili bilan uchrashgani vahokimiyatni oʻz qoʻliga olmoqchi boʻlganligidan xabar topgan oʻzbek va qirgʻiz zodagonlari (Muhammad Niyoz Qushbegi, muhammad Rajab Qoʻrboshi, Muhammad Yoqubbek qushbegi va boshqalar) qipchoqlardan qutulish yoʻlini axtarib Xudoyorxonni oʻzlari tarafga ogʻdirib, 1853 yil qipchoqlar qirgʻinini boshlab yuborishgan. Musulmonqul asirga olinib, qatl qilingan. Biroq Qoʻqon xonligida oʻzaro taxt uchun kurashlar tinchimagan, yuqoridagi harbiy amaldorlar Xudoyorxonga qarshi fitna tayyorlaganlar, biroq u muvaffaqiyatsiz chiqqan (qarang Yoqubbek). Qisqa vaqt ichida xonlar bir necha marta almashgan (1852–62 yillarda SHERALIXONNING oʻgʻli Mallaxon, 1862–63 yilda Shohmurodxon, 1863 yil may-iyunda yana xudoyorxon, 1863 yil iyul – 1865 yillarda Mallaxonning oʻgʻli Sulton Sayidxon xon boʻlgan).

2. Tillakori madrasasining sharq meʼmorchiligidagi oʻrni haqida maʼlumot bering.

Tillakori madrasasi 1646-1660-yillarda Yalangtush BAHODIR tomonidan qurdiriladi. Inshoat chor uslubida qurilgan. Uning qurilishida pishtgan va xom gʻisht, loy, yogʻoch, oltin suvi va qimmatbaho toshlardan foydalanilgan. Hovlisiga 50x50 metr marmar yotqizilgan. 1930-yillarda bu yerda maxsus ustaxona tashkil etilgan. Xozirda davlat muxofazasiga olingan. Memoriy inshoat Yunesko toʻl tashkilotining butun jahon yodgorliklar roʻyhatiga kiritilgan.

3. Abu Nasr Farobiyning ilmiy merosi va uning dunyo sivilizatsiyasidagi oʻrni.

Al Farobiy Abu Nasr ibn Muhammad — faylasuf, entsiklopediyachi-olim, astronom, matematik, oʻrta asrlar Sharq mediki, sharq arastuchilarining asosiy vakillaridan biri boʻlgan. Ikkinchi ustoz (Arastudan keyin) nomiga ega boʻlgan. Asosiy asarlari: “Donishmandlik gemmalari”, “Himmatli shahar aholisining nuqtai nazari haqida risola”, Ilmlar tasnifi risolasi, “Katta musiqa kitobi”.

Al Farobiy 870 yil (boshqa maʼlumotlarga koʻra 872 yil) Sirdaryodagi Aris daryosi chuqurligida joylashgan (zamonaviy Qozogʻiston chegarasi) Vosij shahrining Faroba tumani atrofida dunyoga kelgan. U imtiyozli tabaqaga tegishli turkiylar oilasidan. Toʻliq ismi Abu-Nasr Muhammad Ibn Muhammad Ibn Tarxon Ibn Uzlak al-Farobiy at-Turkiy.

Dunyoni bilishga intilib, al Farobiy ona yerini tark etadi. Bir maʼlumotga koʻra, u oʻspirinlik davrida, boshqa maʼlumotlarga koʻra qirgʻ yoshlarida ketgan. Al Farobiy Bogʻdod, Xorrun, Qoxira, Damashq, Aleppo va Arab xalifatining boshqa shaharlarida boʻlgan.

Al Farobiyning koʻp qirrali ilmiy tadqiqotlar natijasi oʻrnida “Fanlar tasnifi haqida” risolasini

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna boʻling!

aytish mumkin. Unda o'z davrining barcha ilmlari qat'iy tartibda sanalib, har bir fan ta'rifi o'rganib chiqilgan.

Bog'dodda al Farobiy o'z bilimlarini chuqur boyitadi, taniqli olimlar bilan munosabat o'rnatib, tez orada ular orasida nufuzga ega bo'ladi. Lekin aqidaparast yo'nalishdagi ulamolar orasida al Farobiyda safdoshlarining fikrlariga nisbatan ziddiyat uyg'onib, bilimga ega bo'lishda aql-idrokka asoslangan va insonlarni dunyoviy hayotida baxtga erishish yo'liga qaratilgan fikri olg'a turadi. Natijada, al Farobiy Bog'doddan ketishga majbur bo'ladi.

Farobiy, haqiqatdan ham jahon miqyosidagi inson bo'lgan, u o'zining ijodiy yutuqlarida arab, fors, yunon, hind va o'zining shaxsiy turk madaniyatini o'rganib, umumlashtirgan. Turk madaniyati sadosi uning mashhur "Kitab al musiq al kabir" ("Katta musiqa kitobi") asarida yaqqol namoyon bo'lgan.

Farobiy qo'lyozmalari dunyoning ko'plab kutubxonalaridan joy olgan. Shuningdek, Farobiy ijodini o'rganuvchi olimlar safi ham shunchalik keng. Farobiy asarlarini nashrdan chiqaruvchi, uning chinakam ensiklopedik merosining turli jihatlardan o'rganuvchi olimlar farobiyshunoslikka o'z xissasini qo'shib kelishmoqda.

12-BILET

1. Buxoro xonligida Ashtarxoniylar sulolasining taxtga kelishi va suloladavridagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot bilan Shayboniylar sulolasi davrini taqqoslang.

Ashtarxoniylar sulolasi nasabining tarmog'i Chingizxonga yetadi va Jo'jixonning 13-o'g'li To'qay Temurga borib taqaladi. Jo'jixonning katta o'g'li Botuxon To'qay Temurga 14 ulusni, aniqrog'i, Mang'ishloq, Hoji Tarxon va Shimoliy Kavkazdagi aslar yerini mulk qilib bergan[1]. Quyida Ashtarxoniylarning Abulg'ozu Bahodirxonning „Shajarayi turk“, Abdurahmon Tolening „Tarixi Abulfayzxon“, Hoji Mir Muhammad Salimning „Silsilat as-salotin“, Marjoniy Shahobiddinning „Mustafad al-axbor fi ahvoli Qozon va Bulg'or“ asarlariga asosan nasabnoma halqalari keltirilgan[2]. Jadvalda shuningdek Abdusattor Jumanazar tomonidan Abdulqodir ibn Muhammad Aminning „Majma' al-ansob va-l-ashjam“ asariga asosan, lekin, asarda Shayboniylar va Ashtarxoniylar shajarasi chalkashib ketgan o'rinlar uchraydi uchun, aynan asardan ko'chirma bo'lmagan va asardagi ma'lumotlar boshqa manbalar bilan qiyoslab borilib aniqlangan nasabnoma halqasi ham keltiriladi.

Xonadon vakillari turli davrlarda To'qay-Temuriy, Ashtarxoniylar va Joniy kabi bir nechta nisbalar bilan atalib kelingan. Ular Buxoro xonligi taxtini egallagan davrda To'qay-Temuriylar nomi bilan mashhur bo'lishgan[5]. Keyingi davr tarixiy manbalarida sulolaning nomi To'qay-Temuriy (xonadon To'qay-Temuriyon) va sulola vakillari xon o'g'illari (xon o'g'li) deb nomlanishgan.

Ashtarxoniylar nisbasi ilk marotaba Xo'jamqulibek Balxiyning „Tarixi Qipchoqxoniy“ asarida uchraydi. Unga qadar, ya'ni 1720-yillarga qadar bu nisba yoki qo'llanilmagan, yoki ikkinchi darajali bo'lgan deya taxmin qilinadi.

Joniylar nisbasi tarixiy manbalarda hecham qo'llanilmagan va sulolaga yangi davr olimlari tomonidan berilgan.

Ashtarxoniylar davrida davlat tizimi va bosh-qaruvi o'z tuzilishi, mohiyati jihatidan shay-boniylar davridagidan deyarli farq qilmas edi. Davlatning ichki va tashqi siyosatiga doir masalalar rasman oliy hokimiyat boshlig'i Xon ixtiyori bilan hal qilinardi. Markaziy va mahalliy hokimiyat boshqaruvida ham shayboniylar davrida amalda bo'lgan lavozimlar saqlanib qolgan. Ashtarxoniylar davrida saroy qutlovi davlat lavozimi joriy etilib, u davlat mablag'i hisobiga amalga oshiriladigan qurilish, suv inshootlari barpo etish va obodonchilik

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!

ishlarini boshqargan. Buxoro xonligi ma'muriy jihatdan viloyatlarga, viloyatlar tumanlarga bo'linib boshqarilgan. Viloyat hokimlari xon tomonidan tayinlangan. Harbiy sohada doimiy qudratli harbiy qo'shin, markaziy harbiy qo'mondonlikning yo'qligi, qo'shinning zaonaviy qurol-yarog'lar, zambaraklar bilan ta'minlanmaganligi Buxoro xonligining harbiy jihatdan o'ta zaiflashuviga olib keldi. Ashtarxoniylar davrida yerga egalik qilishning, ilgari asrlarda amalda bo'lganidek mulki sultoniy, xususiy mulk, vaqf yerlari shakllari mavjud edi. Mulki sultoniy davlat yerlari hisoblanib, undan keladigan daromad xon xazinasiga kelib tushardi. Davlat yerlaridan o'sha joylarda yashagan dehqonlar foydalangan, ular yerni ishlatib, olingan hosildan xiroj solig'i to'laganlar. Xon davlat tasarrufidagi yerlarni, aholi yashaydigan qishloqlarni shahzodalarga, yirik din ulamolari va sayyidlarga suyurg'ol shaklida, harbiy qism boshliqlari, saroy amaldorlariga tanho shaklida in'om qilardi. Suyurg'ol qilingan katta yer egalari xon xazinasiga soliq to'lmas edi. Tanho shaklida in'om qilingan yerlar tanhodorning xususiy mulki bo'lmay, o'sha yerlarda ishlayotgan dehqonlardan soliq olish huquqi berilar edi. Xon ayrim shaxslarga hukmdorga ko'rsatgan alohida xizmatlari uchun ham yer-mulklar in'om etardi. Bunday mulklar soliqlardan ozod qilinardi va shu boisdan ular "Mulki xurri xolis" deb atalardi. Xususiy mulkchilik tobora kuchayib bordi. Xon tomonidan davlat yerlarini soliqqa tortmaslik sharti bilan yirik boylar va saroy amaldorlariga sotish hollari ham yuz berdi. Xususiy mulk egalari u yerlarda o'zlari ishlamas edi, yersiz dehqonlarga ijaraga berib, ularni zo'ravonlik bilan ishlatib, katta daromad olardilar. Diniy mahkamalarga mulki sultoniy hisobidan berilgan u yerlar, masjidlar, xonaqohlar, qabristonlar vaqf mulki hisoblanardi. Vaqf mulkidan ham soliq olinmas edi. Ko'chmanchi chorvador qabilalar ham katta-katta yerlarni egallab, o'troqlashib, dehqonchilik bilan shug'ullanadigan bo'ldilar. Natijada Qo'ng'iroq, Mang'it, Nayman, Do'rmon va boshqa aholi yashaydigan yirik manzilgohlar vujudga keldi. Ashtarxoniylarning hukmronligi mamlakatda ijtimoiy-siyosiy tarqoqlikning kuchayishi, ko'plab o'zaro urushlar, shaharlarning huvillab qolishi, ko'pdan-ko'p soliqlar natijasida o'troq aholining xonavayron bo'lishi, vohalar va savdo karvonlarining talon-toroj qilinishi bilan tavsiflanadi. Bu davrda yer-mulka nisbatan soliqlar nihoyatda oshib ketdi.

Soliqlar hatto bir necha yil oldin va ko'proq undirib olinadigan bo'ldi. Masalan, Subxonqulixon davrida soliqlar yetti hissa ortiq olindi. Soliqlar «moli jihat» va «xiroj» deb atalardi.

Bu davrda shayboniylar davridagidek ijtimoiy tabaqalar saqlanib qolgan bo'lsa-da, ularning mavqeyida o'zgarishlar ko'zga tashlanadi. Rasman oliy tabaqa hisoblangan xon va yirik saroy amaldorlari ko'p hollarda harbiy-ma'muriy mansabdorlar, viloyat hokimlari, yirik qabila boshliqlari fikri bilan hisoblashishga majbur bo'lib, bu ularning ijtimoiy ahvolini deyarli tenglashtirib qo'yardi. Bu davrda Jo'ybor xo'jalarining avlodlari bo'lgan ulamolar va boshqa diniy amaldorlarning ijtimoiy hayotdagi mavqeyi yanada oshdi. Asosiy soliq to'lovchi bo'lgan ijtimoiy tabaqa - raiyatning ahvoli og'irlashib bordi. Bu davrda ijtimoiy pillapoyaning eng pastida turgan qullarning, ayniqsa, saroy xizmatchi qullarining mavqeyi oshishi uchun imkoniyatlar kengaydi. Xonga va boshqa yirik saroy amaldorlariga tegishli bo'lgan qullar, ba'zi hollarda o'z salohiyati bilan saroydagi yirik amaldorlar qatoridan o'rin olishga ham muvaffaq bo'lgan. Ko'pgina xonlarning shaxsiy qo'riqchilari qullardan iborat bo'lib, bu ularning saroydagi mavqeyini oshirib turardi.

Ashtarxoniylar davlat tuzumi o'z tuzilishi, mohiyatiga ko'ra Shayboniylar davlat tuzumidan deyarli farq qilmas edi. Xon rasman oliy hokimiyat boshlig'i bo'lib, davlatning ichki va tashqi siyosatiga bog'liq barcha masalalar uning ixtiyori bilan hal qilinardi. Barcha oliy farmonlar xon tomonidan joriy qilinardi, uning nomidan tangalar zarb qilinardi, xonning nomi xutbada qo'shib o'qitilardi. Lekin amalda ko'pgina ashtarxoniy hukmdorlar yirik saroy amaldorlari

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!

qo'lida o'yinchoq bo'lib, markaziy davlat boshqaruvi saroy amaldorlari qo'lida to'plangan boisa, joylarda mahalliy hokimiyat tamomila viloyat hokimlari ixtiyorida edi. Bu markaziy boshqaruvning zaifligi oqibati bo'lib, davlat tizimini beqarorligiga, ijtimoiy-siyosiy inqirozlarga olib kelar edi.

2. Mir Arab madrasasining o'lkamiz me'morchiligidagi o'rni haqida ma'lumotbering.

Mir Arab madrasasi Shayx Abdulla YAmaniy tomonidan 1520-1536-yillar oralig'ida bunyod etilgan. Madrasa chor ishlab chiqarilgan. Madrasaning umumiy tarxi 68,5x51,8 m ovli, 35,4x31,3 m darsxona 8x8, hovli 114 ta hujradan iborat. Madrasaning asosi chuqur qilinib, tog'-toshlari bilan mustahkamlangan. Uning go'rxonasida Uboydullaxonning yog'ochdan yasalgan sag'anasi va Mir Arab, uning qarindoshlari qabrlari bor. Shurolar davrida uning faoliyati vaqtincha to'xtatilganiga qaramay 1945-yil yana tiklandi. Mustaqillik yillarida Buxoroning 2500 yilligi munosabati bilan madrasa peshtoqi va gumbazlaridagi to'kilib ketgan koshinkor naqshlari va yozuvlar qayta tiklangan.

3. Ma'rifatparvar olim Abdurauf Fitrat hayoti va faoliyati.

Abdurauf Fitrat (1886, Buxoro shahri, Buxoro Amirligi — 4-oktabr, 1938, Toshkent shahri, O'zbekiston SSR) — o'zbek tarixchisi, filolog, tarjimon, yozuvchi, dramaturg va shoir, zamonaviy o'zbek tili va adabiyoti asoschilaridan biri, O'rta Osiyo jadidchiligining taniqli vakillaridan biri, birinchi o'zbek professori (1926). Jadidchilik miilij ma'rifatparvarlik harakatining tarafdori. Turkiyada o'qigan. Inqilobga qadar O'rta Osiyoni Rossiyadan ozod qilinishi harakatlarida faol qatnashgan, politsiya nazorati ostida bo'lgan. Dastlab eski maktabda, keyinchalik, Buxorodagi Mir-Arab madrasasida tahsil olgan. 1902–1903-yillarda haj safariga chiqqan, uni ado etgach Arabiston, Anatoliya (zamonaviy Turkiya), Kavkazorti, Eron, Afg'oniston, Hindiston bo'ylab sayohat qilgan. 1906–1908-yillarda Rossiyaning Qozon, Nijniy Novgorod, Yaroslavl, Moskva, Petrograd shaharlarida bo'lgan. XX asr boshlarida bujudga kelgan „Tarbiyai atfol“ jamiyati ko'magida 1908–1913-yillarda Istanbuldagi Voizon madrasasida tahsil olgan va qizg'in ijod qilgan. 1908–1913-yillarda Turkiya dorilfununida o'qiyotganda uning zukko, bilimdonligi professor-o'qituvchilarni hayratga soladi. Unga Fitrat — Donishmand taxallusini beradilar. Turkiyadagi „Yosh turklar“ harakatidan ilhomlanib, Buxoroda

„Yosh buxoroliklar“ partiyasini tuzgan, uning ma'naviy rahnamosiga aylangan. Do'sti va maslakdoshi Munzim bilan hamkorlikda buxorolik 70 nafar yosh turkistonliklarni Germaniyaning bir qator oliy ta'lim muassasalariga o'qishga yuborgan.

13-BILET

1. Qoraxoniylar davlatining tashkil topishi va uning davlat boshqaruvidagi o'ziga xos jihatlari.

Qoraxoniylar davlati yoki qisqacha Qoraxoniylar — 840-1212 yillar oralig'ida O'rta Osiyo va Movarounnahrda hukmronlik qilgan turk sulolasi. Bu Markaziy Osiyoda barpo etilgan birinchi islom sulolasidir.

Afzal qarashga ko'ra, Qoraxoniylar davlati qarluq turkiy qabilalariga mansub edi. 389/999-yillarda Ilekxon (388-403/998-1013) qo'mondonligi ostidagi qoraxoniylarning hujumlari ularga Movarounnahr hududidagi hukmronlikni qo'lga kiritish imkonini berdi. Bu hujumlar Somoniylar davlatining qulashi haqida ham xabar berdi. Chunki hujumlardan keyin Qoraxoniylar davlati mintaqadagi Somoniylar davlatining ko'p joylarini bosib oldi. Qoraxoniylar davlati ichki nizolar va bo'linishlar bilan ko'p davrlarni boshidan kechirdi. Bo'linishlar va ichki nizolar, tabiiyki, davlat boshqaruvida sheriklik tizimini qo'llash

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!

natijasida sodir bo'lgan. Chunki davlatda bir vaqtning o'zida ikki xil hukmdor bo'lgan: Buyuk xon va oddiy xon. Buyuk Xon davlatning sharqiy qismida istiqomat qilgan va sharqiy tomonni boshqargan. Boshqa Xon g'arbda istiqomat qilib, davlatning g'arbiy qismini boshqargan.

2. Registon ansamblining o'ziga xos qurilish uslubi haqida ma'lumot bering.

Registon ansambili. 17-asrda Samarqand Registon ansambilining hozirgi qiyofasi shakillantirildi. Samarqand hokimi Yalangto'sh bahodir 1619-1635-yillarda vayrona holatiga tushib qolgan Registon maydonida Ulug'bek madrasasi qarshisida SHerdormadrasasini uning yonida 1646-1660-yillarda Tillakori madrasa – masjidini o'z mablag'laridan bunyod ettirgan. Registon ansambili o'zining rang – barang koshinkor peshtoqlari bilan Markaziy Osiyoning noyob durdonasidir.

3. Turdi Farog'iy hayoti va ijodi.

Turdi Farog'iy (taxminan 1640-1699/1700) Shoir XVII asrda Buxoro xonligida yashagan. Murakkab hayot yo'lini bosib o'tgan. Undan bizgacha hammasibo'lib o'n sakkiz she'r yetib kelgan. Hajmi - 434 misra. She'rlarning o'n ikkitasi - g'azal, beshtasi -muxammas, bittasi - fard. She'rlardan ikkitasi fors tilida, qolganlari o'zbekcha yozilgan. Turdi Farog'iyning she'rlarini mavzu yo'nalishiga ko'ra ishqiy-falsafiy va ijtimoiy-siyosiy kabi ikki guruhga bo'lish mumkin.

14-BILET

1. Mahmud Torobiyning yurt ozodligi yo'lidagi jasorati haqida gapirib bering.

Mahmud Torobiy qo'zg'oloni — Buxoroda mo'g'ullar zulmiga qarshi ko'tarilgan xalq harakati (1238). Harbiy rahbari — Mahmud Torobiy, g'oyaviy mafkurachisi — Shamsuddin Mahbubiy.

Chig'atoy ulusida mo'g'ullar istibdodi ostida ezilgan va zulmidan to'ygan mahalliy aholi qo'zg'olon ko'tarishga bir necha marta harakat qilgan. Buxorodan 20 km g'arbdagi Torob qishlog'i (hozirda Buxoro viloyati Jondor tumani hududi) da boshlangan qo'zg'olon bu kurashning cho'qqisi hisoblanadi. Torob qishlog'i va uning atrofidagi dehqonlar va hunarmandlar majlislarida o'zaro kengashib, mo'g'ullar zulmiga qarshi ochiq kurash boshlashga qaror qilganlar.

Qo'zg'olonchilar Mahmud Torobiy boshchiligida Buxoroga yurishdi va shahardagi Malik Sanjar qasri (1206-yilda Buxoroda ko'tarilgan qo'zg'olon rahbari qurdirgan) ni egallab, uni o'zlariga qarorgoh qilib olishdi. Ular safiga ko'plab tarafdorlar va maslakdoshlar kelib qo'shilgan. Torobiyning opasi ham qo'zg'olonning faol ishtirokchilaridan biri bo'lib, bu tabib va duxon ayol o'z mardligi, kuch-g'ayrati, jasorati va dushmanga nafrati bilan qo'zg'olonchilar orasida alohida ajralib turgan.

Juvayniyning yozishicha, yirik tasavvuf shayxi va aqid ulamosi Shamsuddin Mahbubiy qo'zg'olonchilarning g'oyaviy rahnamosi sifatida qo'shin va xalq o'rtasida katta tashviqot ishlarini olib borgan. Ular mo'g'ul bosqinchilari va ular xizmatiga o'tgan mahalliy ma'murlarni o'ldirib, mol-mulkini beva-bechoralarga taqsimlab berishgan. Buxoro butunlay qo'zg'olonchilar qo'liga o'tgan. Mahmud Torobiy Robia saroyiga joylashib, sulton qilib ko'tarilgan, bosh sadr Burhoniddin uning talabi bilan Shamsuddin Mahbubiy shahar sadri etib tayinlagan.

Mo'g'ul qo'shinlari va bosqinchilari bu paytda Karmanaga qochib, shoshilinch kuch to'play boshlaganlar. Qo'zg'olonni bostirish uchun Karmanadan yuborilgan mo'g'ul qo'shinlari Buxoro atrofida tormor keltirilgan; jangda 10 ming mo'g'ul askari o'ldirilgan. Qo'zg'olonchilar mo'g'ullarni quvib, Karmanagacha borganlar. Biroq bu jangda Mahmud

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!

Torobiy va Shamsuddin Mahbubiy ham halok bo'lishgan. Qo'zg'olonga Mahmud Torobiyning 2 ukasi: Muhammad va Ali rahbarlik qilganlar. Mo'g'ullar ularga qarshi Eldiz No'yon va Chekan Qurchi boshliq yangi kuchlarni tashlashgan. Karmana yaqinidagi Raboti Malik (hozirgi Navoiy tumani markazi Malik rabot)da bo'lgan shiddatli jangda qo'zg'olonchilar mag'lubiyatga uchragan, ulardan 20 ming kishi, jumladan, Muhammad hamda Ali ham halok bo'lgan. Qo'zg'olon shafqatsizlarcha bostirilgan. Mo'g'ullar Buxoroga kirib, shahar va uning atrofidagi kishilarni talashga va o'ldirishga kirishgan. Xo'jandda turgan Maxmud Yalavochning bu yerga kelishi bilan Buxorodagi qirg'in to'xtatilgan. U talangan va vayron etilgan shahardan hech qanday soliq yig'ib bo'lmasligiga Chig'atoyyn ishontira olgan. Mahmud Torobiy qo'zg'oloni mag'lubiyatga uchrasa ham, u izzsiz ketmagan. Mo'g'ul ma'murlari endilikda mahalliy aholi bilan ehtiyotkorona munosabatda bo'lib, o'lpon va soliqlarni kamaytirishgan. Ma'lum muddat turli o'zboshimchaliklarga chek qo'yilgan. Chig'atoy ulusini mo'g'ul xoqon (qoon)lari nomidan boshqargan Mahmud Yalavoch va uning o'g'li Mas'ud Yalavoch bu paytda ham xoqonlar manfaatini ko'zlaydigan, ham mahalliy xalqqa xayrixoh nozik siyosatni yuritishgan.

2. "G'alaba bog'i"ning bunyod etilishi va uning yoshlar ongida tarixiytafakkurni rivojlantirishdagi o'rni haqida ma'lumot bering.

G'alaba bog'i 2020-yil 9-may kuni, fashizm ustidan qozonilgan ikkinchi jahon urushidagi g'alabaning 75 yilligi munosabati bilan Toshkent shahrining Olmazor tumanida barpo etilgan. U o'z tarkibiga "Shon-sharaf" davlat muzeyi, "Mangu jasorat" va "Matonat madhiyasi" monumentlarini, tarixiy-badiiy ekspozitsiyalarni jamlagan.

3. Alisher Navoiy ijodi va uning bunyodkorlikka qo'shgan hissasi haqidagapirib bering.

Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirotda tavallud topgan. Navoiyning otasi G'iyosiddin Bahodir temuriylar xonadoniga yaqin bo'lgan. She'r zavqi va iste'dodi erta uyg'ongan. Bolalikdayoq Farididdin Attorning „Mantiqut-tayr“ asarini yod olgan, Sharafiddin Ali Yazdiy nazariga tushgan, Mavlono Lutfiy yosh shoir iste'dodiga yuqori baho bergan, Kamol Turbatiy e'tirofmi qozongan. Sayyid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammad kabi ustozlardan ta'lim olgan, Abdurahmon Jomiy bilan ijodiy hamkorlikda bo'lgan. Navoiy 1469 yilgacha temuriylar orasidagi ichki nizolar sababli Hirotdan yiroqroqda yashagan.

Husayn Boyqaro Xuroson taxtiga o'tirgach (1469), Navoiy hayoti va ijodida yangi bosqich boshlanadi, muhrdorlik (1469) mansabiga, vazirlik (1472) va Astrobod hokimligi (1487)ga tayinlanadi. 1480—1500 yillar mobaynida o'z mablag'lari hisobidan bir necha madrasa, 40 rabot (safardagi yo'lovchilar to'xtab o'tish joyi), 17 masjid, 10 xonaqoh, 9 hammom, 9 ko'prik, 20 ta hovuz qurdiradi. Husayn Boyqaro Alisher Navoiyga „muqarrabi hazrati sultoniy“ („sulton hazratlarining eng yaqin kishisi“) degan unvonni beradi. Unga ko'ra Navoiy davlatning barcha ishlariga aralasha olardi.

15-BILET

1. Ilm-fan markazi — "Ma'mun akademiyasi"ning tashkil topishi.

Ma'mun akademiyasi - 9-asr 1-yarmida Xalifa Ma'mun arrashid (813—833) tomonidan Bag'dodda tashkil etilgan ilmiy markaz. Dastlab "Bayt ul hikmat" ("Bilim uyi" deb atalgan). Bu akademiyada Hunayn ibn Ishoq, Sobit ibn Kurra, Xubaysh, Baxtyashu, Qusto ibn Luqa al-Baaxbakkiy, Yahyo ibn Adiy, Ishoq al-Damashqiy, Masarjuvayxlar oilasi, Navbaxt, Ibn Muqaffa, Ibn Mojja, Ibn Vaxshiyalar tomonidan yunon, yahudiy, sanskrit, suryoniy, fors tilidan juda ko'plab ilmiy-adabiy, falsafiy-axloqiy asarlar arab tiliga tarjima qilindi va ularga sharxlar yozilib, musulmon dunyosiga yoyildi. Ayni shu tarjima va sharxlar tufayli yunon,

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!

hind olimlari asarlari bizgacha yetib kelgan. 828 yil Ma'mun akademiyasi qoshida Bag'dodning ash-Shammasiya mahallasida birinchi rasadxona, 831 yil Damashq yaqinidagi Kosion tog'ida rasadxonaning bo'limi qurilgan. Rasadxonaga dastlab marvlik Abu Ali Yahyo ibn Mansur, keyinchalik Muhammad Xorazmiy rahbarlik qilgan. Ma'mun akademiyasida turli maqsadlarda ilmiy ekspeditsiyalar ham tashkil qilingan. Chunonchi 830 yil Xorazmiy boshchiligida G'arbiy Hindiston (hozirgi Sharqiy Afg'oniston), Vizantiya, Volganing quyi oqimiga 3 ta ekspeditsiya uyushtirilgan. Ma'mun akademiyasida Xorazmiy bilan birga Xolid ibn al-Malik al-Marvarrudiy, Al-Abbos ibn Sayd al-Javhariy, Ahmad ibn Abdulloh alMarvaziy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Fazl alhamid ibn Vase' ibn Turk alXuttaliy, Abu Yusuf Yoqub ibn Sabbox al-Kindiy va boshqa ko'plab o'rtaosiyolik olimlar ijod qilib, turli fanlar rivojiga katta hissa qo'shdilar.

2. Ulug'bek rasadxonasi va undagi ilm-fanning rivoji haqida ma'lumot bering.

Ulug'bek rasadxonasi - Samarqanddagi XV asr me'morligining nodir namunalardan biri, ko'hna astronomik kuzatuv muassasasi. Ulug'bek farmoyishi bilan 1428 — 29 yilda Ko'xak (Cho'ponota) tepaligida ulkan silindr shaklidabunyod etilgan; ayrim qo'lyozmalarga ko'ra, balandligi 30,4 metrdan iborat 3 qavatliqilib qurilgan. Unda o'ndan ortiq turli astronomik qurilma va asboblardan iborat. Ulardan eng asosiysi radiusi 40,2 metrli qo'shaloq yoydan iborat kvadrant (yoki sekstantga yaqin) qurilma hisoblanadi. Rasadxona o'rta asiya davrida asbob uskunasi jihatdan ham beqiyos bo'lgan. Mirzo Ulug'bekning eng yirik astronomik asari "Zij-i Ko'roniy" rasadxonada yaratilgan. Uning qurilishi va keyingi ilmiy faoliyati Ulug'bek taklifi bilan yig'ilgan qator mashhur olimlar G'iyosiddin Koshiy, Qozizoda Rumiyy, Ali Qushchi va boshqa nomi bilan bog'liq. Ulug'bek rasadxonasining arxeologik qoldiqlari 1908 y. V.L. Vyatkin rahbarligida olib borilgan qazilma ishlari natijasida topilgan.

3. Munavvar Qori Abdurashidxonov – O'rta Osiyo jadidchilik harakatining yo'lboshchisi.

Munavvarqori, Abdurashidxonov Munavvar qori (1878, Toshkent — 1931.23.4, Moskva) — O'rta Osiyo jadidchilik harakatining yo'lboshchisi, 20-asr o'zbek milliy matbuoti va yangi usuldagi milliy maktab asoschisi, yangi milliy teatr tashkilotchilaridan biri, adib va shoir. Toshkentning Shayxontohur dahasidagi Darxon mahallasida ziyoli oilasida tug'ilgan. Otasi Abdurashidxon Soti-boldixon o'g'li mudarris, onasi Xosi-yat otin Xonxo'ja Shorahimxo'ja mudarris qizi otinoyi bo'lgan. U oklada uchinchi o'g'il bo'lib, katta akalari A'zamxon (1872—1919) va Muslimxon (1875—1954) muallim bo'lishgan. M. o'z faoliyati davomida pedagogik, matbuotchilik, muharrirlik, adiblik bilan cheklanmay, jiddiy siyosiyfaoliyat ham olib borgan, shu sababli mustamlaka hukumati tomonidan bir necha bor hibsga olingan. Yevropa savdosanoat, ilm-fanini o'rganishga chaqirgan, ma'naviyqoloqlikni qoralagan. Chor va sho'ro hukumatlari olib borgan mustamlakachilik siyosatiga karshi izchil kurash olib borib, "Nashri maorif" kabi jamiyat, firqa va tashkilotlar faoliyatiga rahbarlik qilgan. U vijdon erkinligini inkor etmagan dunyoviy demokratik davlat tarafdori bo'lgan. Shu sababli Qo'qon shahrida tashkil topgan Turkiston muxtoriyatinm (1917) qo'llab-quvvatlagan. Umr bo'yi o'z vatanini mustaqil ko'rishni istagan.

16-BILET

1. O'zbekistonda — milliy valyutaning qabul qilinishi va uning tarixiyahamiyati.

So'm — O'zbekiston Respublikasining pul birligi. 1 So'm 100 tiyin. Xalqaro ifodasiUZS. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomalaga kiritish to'g'risida“gi 1994-yil 16 iyundagi farmoni bilan 1994-yilning 1 iyulidan

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!

respublika hududida yagona, cheklanmagan va qonuniy to'lov vositasi sifatida muomalaga chiqarilgan. Qimmatbaho metallar suvi yuritilgan turli qiymatdagi yubiley tangalar esa turli sanalar nishonlanishimunosabati bilan va numizmatik maqsadda chiqarilgan (qarang Tanga). So'mning muomalaga kiritilishi O'zbekiston pul muomalasi va hisob-kitoblar tizimini tashkil etish hamda respublika iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Milliy valyuta pul belgilarini muomalaga chiqarish va uning barqarorligini ta'minlashni O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki amalga oshiradi. 1 so'm = 100 tiyin. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 122—moddasi va „O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida“gi qonunning 11-moddasi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning 1993-yil 3-sentabrdagi 952-XII sonli qaroriga muvofiq 1994-yil 1 iyuldan boshlab, O'zbekiston Respublikasi hududida qonuniy to'lov vositasi bo'lgan milliy valyuta — „so'm“ muomalaga kiritildi. 2013-yil iyunida 5000 so'm qiymatlik yangi banknota chiqishi haqida xabarlar tarqaldi. 2013-yil 27- iyunida O'zbekiston respublikasi Markaziy banki shu yilning 1-iyulidan boshlab qiymati 5000 so'm bo'lgan pul chiptalarini muomalaga chiqarishini bildirdi.. 2017-yil 20-fevralda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati kengashining „O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 10000 so'mlik banknotlarning chiqarilishi to'g'risida“gi qarori qabul qilindi. 2021-yil 14- iyundan 2000 va 20000 so'mlik banknotlar muomalaga chiqarildi

2. Temuriylar tarixi davlat muzeyining boshqa muzeylardan o'ziga xos farqlijihatlarini aytib bering.

Temuriylar tarixi davlat muzeyi — Toshkentdagi Amir Temur xiyoboni yaqinida bunyod etilgan tarix muzeyi (1996). Muzey binosi o'rta asr me'morligi an'analari asosida aylana tarxli, tomi gumbazli qilib, maxsus temirbetondan yaxlit supa ustiga qurilgan. Bino 3 qavatli, bal. 31 m (diametri — tashqi tomoni 70 m, ichkisi 50 m), uni qurishda temir ustun, g'isht, turli beton blok va yengil tayyorlangan sun'iy qurilish uskunalari qo'llanilgan. Devor yuzasini pardoqlashda ganch, marmar va sopol koshinlar ishlatilgan. Qurilishda Toshkent sh. hokimiyati, "Turon" firmasi, Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish. birlashmasi, "Oniks" korxonasi (30 dan ortiq kattakichik hajmdagi billur qandillar, 500 ta yoritgichli, og'irligi 2 t, bal. 8 m "Zumrad" qandil ishlab bergan), "Us to" birlashmasi qatnashgan. Muzeyga marmar zinalar orqali bosh tarzi (Amir Temurxiyobonidan)dagi 3 eshikdan kiriladi. 14 ta yog'och o'ymakorligidagi eshik o'ziga xos. Atrofi peshayvonli, qator ustunli (20 ta, bal. 10 m, muqarnas boshali, poyustuni kulrang marmardan ishlangan), turunjleri sirkori sopol bilan bezatilgan, binoning tashqi devori yuzasida "suls" uslubida insonni yaxshilikka undovchi so'zlar bitilgan. Bino asosida foye, magazinlar, ma'muriyat, vestibyul, kassa, axborotma'ruza zali vaboshqa texnik xizmat xonalari joylashgan. 1qavatda ko'rgazma va kinoleksiya zali (200 o'rindiqli) bor.

3. Atoqli shoir – Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li ijodi haqida.

Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li (taxallusi Zevar) (1824 — Mo'ynoq tumani — 1878) — qoraqalpoq shoiri. Eski maktabda, so'ngra Xivadagi Sherg'ozixon madrasasida o'qigan. Qoraqalpoq ziyolilari orasida birinchilardan bo'lib oxund dara-jasiga erishgan. O'zbek, qozoq, turkman tillarini yaxshi bilgan. A. adabiy merosidan bizga 100 ga yaqin she'r va dostonlari yetib kelgan. She'rlarida vatanpar-varlik, insonparvarlik g'oyalari kuy-lang'an. „Kerak“, „Bo'ladi“, „Bo'lmasa“, „Yaxshi“, „Yigitlar“ kabi asarlarida A.ning insonparvar g'oya lari, falsafiy qarashlari ifodalangan. Asarlari xalq orasida keng tarqalgan. „Qiz Mengesh bilan aytishuv“ asari (1878) mashhur. Uning hayoti haqida yozuvchi K. Sultonov „Ajiniyoz“ romanini (1967), shoir I. Yusupov „Ajiniyoz“ operasi librettosini yaratgan (1989). Asarlari o'zbek tilida nashr

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!

etilgan („Tanlangan asarlar“, 1962 va boshqalar). 1999-yil O‘zbekistonda A. tavalludining 175 yilligi keng nishonlandi. Nukus shahrining xushmanzara joyida shoir nomi bilan ataluvchi maydon barpo etildi va A.ga haykal o‘rnatildi. Ad.: Saitov B., Berdaq va Ajiniyoz asarlari lug‘ati, Nukus, 1970.

17-BILET

1. Mard o‘g‘lonlar maskani – “Temurbeklar maktabi”ning tashkil etilishi.

Temurbeklar maktabi — O‘zbekistonda tashkil etilgan harbiy-akademik litseylar. Ushbu nom 2017—2019-yillarda Respublikadagi barcha harbiy litseylarga (akademik litseylarga) nisbatan qo‘llanilgan. 2019-yildan esa faqatgina yangi tashkil etila boshlagan harbiy-akademik litseylarga nisbatan qo‘llanilib kelinmoqda. Ta‘lim muassasalarining nomi Amir Temur nomiga atab qo‘yilgan.

Dastlab, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yildagi farmoniga asosan Respublikadagi barcha harbiy litseylarga „Temurbeklar maktabi“ deb nom berilgan. Keyinchalik, Prezidentning 2019-yildagi qaroriga asosan mudofaa, ichki ishlar va favqulodda vaziyatlar vazirliklari hamda Davlat xavfsizlik xizmati va Milliy gvardiya tarkibida shunday yangi akademik litseydan bittadan shakllantirila boshladi. Natijada, Mudofaa vazirligiga qarashli bo‘lgan Samarqand va Urganchdagi „Temurbeklar maktabi“ning faoliyati tugatildi.

2. Temuriylar tarixi davlat muzeyining boshqa muzeylardan o‘ziga xos alohidava farqli jihatlarini aytib bering.

Temuriylar tarixi davlat muzeyi — Toshkentdagi Amir Temur xiyoboni yaqinida bunyod etilgan tarix muzeyi (1996). Muzey binosi o‘rta asr me‘morligi an‘analari asosida aylana tarxli, tomi gumbazli qilib, maxsus temirbetondan yaxlit supa ustiga qurilgan. Bino 3 qavatli, bal. 31 m (diametri — tashqi tomoni 70 m, ichkisi 50 m), uni qurishda temir ustun, g‘isht, turli beton blok va yengil tayyorlangan sun‘iy qurilish uskunalari qo‘llanilgan. Devor yuzasini pardoqlashda ganch, marmar va sopol koshinlar ishlatilgan. Qurilishda Toshkent sh. hokimiyati, "Turon" firmasi, Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish. birlashmasi, "Oniks" korxonasi (30 dan ortiq kattakichik hajmdagi billur qandillar, 500 ta yoritgichli, og‘irligi 2 t, bal. 8 m "Zumrad" qandil ishlab bergan), "Us to" birlashmasi qatnashgan. Muzeyga marmar zinalar orqali bosh tarzi (Amir Temurxiyobonidan)dagi 3 eshikdan kiriladi. 14 ta yog‘och o‘ymakorligidagi eshik o‘ziga xos. Atrofi peshayvonli, qator ustunli (20 ta, bal. 10 m, muqarnas boshali, poyustuni kulrang marmardan ishlangan), turunjlari sirkori sopol bilan bezatilgan, binoning tashqi devori yuzasida "suls" uslubida insonni yaxshilikka undovchi so‘zlar bitilgan. Bino asosida foye, magazinlar, ma‘muriyat, vestibyul, kassa, axborotma‘ruza zali vaboshqa texnik xizmat xonalari joylashgan. 1qavatda ko‘rgazma va kinoleksiya zali (200 o‘rindiqli) bor.

3. Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy hayoti va faoliyati.

Abu Rayhon Beruniy Muhammad ibn Ahmad 973-yil 4-sentabrda Katda, Xorazm, – 11-dekabr, 1048, G‘azna) — XI asr qomusiy olimi. Turkistonlik ulug‘ alloma abu Rayhon Beruniy ota- onasidan juda yosh yetim qolgan va lroqiylar xonadonida tarbiyalangan. Beruniy juda yoshligidan ilm va fanga qiziqadi. U sevgan fanlar — astronomiya, matematika, geodeziya, geografiya va mineralogiya edi. Bag‘dodda tashkil topgan „Donishmandlik uyi nomli o‘sha davrning fanlar akademiyasida O‘rta Osiyolik olimlardan Xorazmiy, Farg‘oniy, Habash Xasib, Marvaridiy kabi olimlar turli sohalarda ish olib borganlar. Beruniy ham shu „Donishmandlik uyining a‘zosi bo‘lib. U yerda 7 yil ishlagan.

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo‘ling!

18-BILET

1. Buxoro amirligining tashkil topishi va uning davlat boshqaruvining Buxoro xonligidan farqli hamda o'xshash jihatlari.

Buxoroda 1711-1747 yillarda Abdulfayzxon nomigagina xon edi. Mamlakatni boshqarish Muhammad Xakimbiy otaliq qo'lida bo'ldi. 1747 yilda Abdulfayzxon bir guruh fitnachilar tomonidan o'ldirildi. Muhammad Xakimbiy ham tez orada vafot etdi. Davlat ishlari Muhammad Xakimbiyning o'g'li Muhammad Rahimbiy qo'lga o'tdi. Muhammad Rahimbiy 1573 yilda Buxoro taxtini egalladi. U o'ziga qarshi isyon ko'targan Shahrizabz, Urgut, Jizzax, O'rtepa, Xo'jand, Toshkent va boshqa beklklarda mavqeini mustahkamlab olgach, o'zini amir deb e'lon qildi. Shu tariqa, Buxoroda mang'itlar sulolasi xukmronligi (1753-1920) qaror topdi. Shundane'tiboran poytaxti Buxoro bo'lgan davlat Buxoro amirligi deb atala boshlandi. Muhammad Rahim hukmronligini beklk-viloyatlardagi boshqa qavmlardan bo'lgan hokimlar tan olmadilar. Amir mang'itlarga tayanib hokimiyatni markazlashtirishga intildi. Barcha qabilalarning hukmdorlarini Buxoroga yig'ib, ulardan markaziy hokimiyatga bo'ysunishni talab qildi, aks holda qattiq jazolanishi haqida ogohlantirdi. Viloyatlardagi ko'pgina hokimlar, bebosh amaldorlar hokimiyatdan chetlashtirilib, yer-mulki tortib olinib, boshqa joylarga ko'chirildi. Ular o'rniga amir qabiladoshlaridan tayinlandi. Muhammad Rahim Buxoro minorasi yonidagi o'zqarorgohini mahsus qurilgan Arkka ko'chirdi, o'zboshimcha beklarni Arkka chaqirib qattiq jazoladi. Tarqoqlikni bartaraf etish maqsadida ko'pgina beklklarga- Samarqand, Jizzax, O'rtepa, Hisor, Boysun, Shahrizabzga qarshi qonli urushlar qildi, ko'pgina viloyatlar vayron bo'ldi. Muhammad Rahim Nurotada istiqomatqiluvchi burgut qabilasi mang'itini bostirib, ularning harbiy istehkomlarini buzib tashlab, o'zlarini Buxoro tumaniga ko'chirdi.

2. Sherdor madrasasi me'morchiligining o'ziga xos uslublari haqida ma'lumotbering.

Samarqandning Registon maydonida 3 Madrasa (Ulug'bek madrasasi, Tillakori Madrasasi, Sherdor Madrasasi) dan iborat me'moriy majmua. Dastlab Ulug'bek madrasasi (1417—1420 yillar) bunyod etilib, keyinchalik qarshisiga – maydon sharqiga Ulug'bek xonaqohi (1424 y), shimolga Mirzoyi karvonsaroyi, janubga Aliko Ko'kaldosh Juma masjidi (1430 y) qurdirgan, yonida esa yog'ochdanxotamkori uslubida masjidi Muqatta va Abusaid madrasasi qurilgan. XV asrning 20-yillarida Registon hashamatli me'moriy ansamblga aylangan. XVII asrda Samarqand hokimi Yalangto'sh Bahodir vayrona holatdagi Ulug'bek xonaqohi o'rniga Sherdor Madrasa (1619—1635/36)ni, Mirzoyi karvonsaroyi o'rniga Tillakori madrasa masjidi (1646/47— 1659/60)ni qurdirgan. Registon ansambli o'zining rang-barang koshinkori bezaklari; naqshinkori peshtoqlari, ulkan gumbazlari bilan O'rta Osiyo me'morchiligining noyob yodgorligi hisoblanadi

3. Davlat va jamoat arbobi Sharof Rashidovning hayot yo'li.

Sharof Rashidovich Rashidov (6-noyabr (24-oktabr eski hisob bo'yicha) 1917 — 31-oktabr 1983) — sovet partiya va davlat arbobi, o'zbek yozuvchisi, Sotsialistik Mehnat Qahramoni (1974), O'zbekiston SSR Kommunistik partiyasi rahbari. 1939-yildan KPSS a'zosi. Jizzax ped. texnikumini (1935), Samarqand Davlat Universitetining filologiya fakultetini tugatgan (1941). Samarqand viloyati gaz.da mas'ul kotib, muharrir o'rinbosari va muharrir (1937-41,1943). Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi (1941-yil noyabr — 1942). O'zbekiston KP Samarqand viloyat komiteti kotibi (1944-47), „Qizil O'zbekiston“ gazeta muharriri (1947-49), O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi boshqaruvi raisi (1949-50). O'zbekiston Oliy Soveti Prezidiumi raisi (1950-59). O'zbekiston KP MK 1kotibi (1959-83). KPSS MK Siyosiy byurosi (Prezidiumi) a'zolidigiga nomzod (1961-83). 2 marta Mehnat Qahramoni (1974, 1977).

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!

Rashidov adabiyotga shoir sifatida kirib keldi va lyirik asari — „Chegarachi“ dostoni 1937-yilda nashr qilindi. Fashizmga qarshi kurash tuyg‘ulari bilan sugorilgan „Qaxrim“ she’rlar to‘plami 1945-yilda chop etildi. Rashidov davrning muhim hisoblangan muammolaridan biri — qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirish mavzuida „G‘oliblar“ qissasini (1953) yozdi. Ikkinchi jahon urushi yillarida front orqasida qahramonona mehnat qilgan xalq hayotiga bag‘ishlangan „Bo‘rondan kuchli“ (1958) va „Qudratli to‘lqin“ (1964), „G‘oliblar“ (1972) romanlarini yaratdi. Rashidov xalq va mamlakat hayotida ro‘y bergan voqealarni davlat va partiya arbobi sifatida mushohada etib, adabiyotning badiiylik mezonlaridan ko‘ra g‘oyaviylik tamoyiliga ko‘proq e‘tibor berdi. Hind xalq afsonasi asosida yozilgan „Kashmir qo‘shig‘i“ lirik qissasi (1956) Rashidov ijodida alohida o‘rinni egallaydi.

Rashidov respublikaga rahbarlik qilgan yillarda qator bunyodkorlik ishlari bilan birga qishloq xo‘jaligi yerlaridan ekstensiv foydalanish oqibatida ekologik vaziyatning buzilishi, paxta yakkahokimligining qaror topishi kabi noxush holatlar ham yuz berdi. Rashidov vafotidan so‘ng Markaz tomonidan totalitar tuzumning barcha kirdikorlari unga yuklanib, 80-yillar qatag‘onida nohaq qoralandi.

19-BILET

1. O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasining tashkil topishi haqida ma’lumotbering.

O‘zbekiston xalq demokratik partiyasi (O‘zbekiston XDP) — O‘zbekistondagi siyosiy partiyalardan biri. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1991-yil 15-noyabrda ro‘yxatga olingan. 2005-yil iyulda partiyaning yangi Dasturi, 2004-yil noyabrda yangi tahrirdagi Ustavi tasdiqlandi. O‘zbekiston XDP har bir oila, mehnat kishisining millati, dini, e‘tiqodi, ijtimoiy ahvoli va kelib chiqishidan qat’i nazar, moddiy va ma’naviy farovon hayot kechirishi uchun teng imkoniyatlar yaratish, ularning konstitutsiyaviy huquqlari va insoniy erkinliklarini kafolatlash, sha’ni, qadr qimmatini, tinchligini ta’minlashni o‘z vazifasi deb biladi. Partiya mamlakatimiz aholisining ijtimoiy muhofazaga muhtoj tabaqalari manfaatlarini ifoda etadi va himoya qiladi. O‘zbekiston XDPning oliy organi — 5 yilda 1 marta chaqiriladigan qurultoy. Unda partiya Markaziy kengashi va Markaziy taftish komissiyasi saylanadi. Markaziy kengash plenumida MK birinchi kotibi va kotiblari (yangi tahrirdagi Ustavga muvofiq, MK raisi va rais o‘rinbosarlari) hamda joriy ishlarga rahbarlik qiluvchi Siyosiy ijroiya qo‘mita saylanadi. O‘zbekiston XDP Markaziy kengashi 1 kotiblari: M. Rasulov (1991-94), A. Jalolov (1994-2004); Markaziy Kengash raislari: A. Rustamov (2004-2005), L. G‘ulomov (2005-yil iyuldan). O‘zbekiston XDP tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, 12 ta viloyat, Toshkent shahri, 171 ta tuman va 29 shahar kengashlari, 13730 ta boshlang‘ich tashkilot mavjud. Partiyaning 585 196 nafar a‘zosi bor (2005-yil 1-yanvar). O‘zbekiston XDP faoliyatining asosiy yo‘nalishi parlamentchilik ishidir. Oliy Majlisning Qonunchilik palatasida uning 27 nafar deputatni birlashtiruvchi fraksiyasi mavjud. Fraksiya 2005 yil 14 fevraldagi yig‘ilishida Oliy Majlis Qonunchilik palatasida uchta siyosiy partiya fraksiyalaridan iborat ko‘pchilikni tashkil etuvchi „Demokratik blok“ tuzilganligi munosabati bilan o‘zining parlament quyi palatasidagi faoliyatini muxolifatdagi parlament ozchiligi sifatida amalga oshirishini e‘lon qildi. O‘zbekiston XDPning markaziy nashrlari: „O‘zbekiston ovozi“ va „Golos Uzbekistana“ gazlari va „Muloqot“ jurnali.

2. Ulug‘bek rasadxonasi va uning ilm-fan rivojidagi roli haqida ma’lumotbering.

Ulug‘bek rasadxonasi - Samarqanddagi XV asr me’morligining nodir namunalaridan biri, ko‘hna astronomik kuzatuv muassasasi. Ulug‘bek farmoyishi bilan 1428 — 29 yilda Ko‘xak (Cho‘ponota) tepaligida ulkan silindr shaklidagi bunyod etilgan; ayrim qo‘lyozmalarga ko‘ra,

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo‘ling!

balandligi 30,4 metrdan iborat 3 qavatliqilib qurilgan. Unda o'ndan ortiq turli astronomik qurilma va asboblari bulgan. Ulardan eng asosiysi radiusi 40,2 metrli qo'shaloq yoydan iborat kvadrant (yoki sekstantga yaqin) qurilma hisoblanadi. Rasadxona o'rta asrda asbob uskunasi jihatdan ham beqiyos bo'lgan. Mirzo Ulug'bekning eng yirik astronomik asari "Zij Ko'ragoniy" rasadxonada yaratilgan. Uning qurilishi va keyingi ilmiy faoliyati Ulug'bek taklifi bilan yig'ilgan qator mashhur olimlar G'iyosiddin Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi va boshqa nomi bilan bog'liq.

Ulug'bek rasadxonasining arxeologik qoldiqlari 1908 y. V.L. Vyatkin rahbarligida olib borilgan qazilma ishlari natijasida topilgan.

3. Najmiddin Kubroning Vatan ozodligi yo'lidagi harakatlari.

Tasavvuf ta'limotining buyuk siymalaridan yana biri Najmiddin Kubro (1145-1221) edi. U Xorazmda «Kubroviya» tariqatiga asos soladi. Yassaviy tariqatidan farqli o'laroq, Kubroviya tariqati tarkidunyochilikni rad etadi. Kamolot yo'lida olib boriladigan mashaqqatli mehnat jarayonida bu dunyo nozne'matlaridan bahramand bo'lish joizligi g'oyasi ilgari suriladi. Kubroviya tariqatida xalqqa va Vatanga bo'lgan muhabbat nihoyatda kuchli bo'lib, har qanday og'ir damlarda ham omma bilan birga bo'lish. Vatanni mudofaa qilish va uning mustaqilligi uchun kurashga da'vat etiladi. Hotto uning urishda joni uzilganda ham qo'lidagi bayroqni olisholmaydi va qo'lini chopib olishga majbur bo'ladi.

20-BILET

1. Amir Temurning Movarounnahrni egallashi.

14-asr o'rtalarida barlos beki o'g'li Temur Tarag'ay buyuk siyosiy arbob sifatida tarix sahnasida namoyon bo'ladi. Nufuzli turk amiri Qazag'on nabirasi — Samarqand hukmdori Xusayn bilan ittifoqchilikda Temur Movarounnahrni birlashtirish va uni mo'g'il bosqinidan ozod qilish uchun kurash boshlaydi. Biroq ko'p o'tmay ular o'rtasidagi munosabatlar keskinlashadi. 1370 yili Amir Temur Xusayn qo'shinini tor-mor qilgach, Movarounnahr amiri deb e'lon qilinadi. 1372—1388 yillar davomida Amir Temur Xorazmga besh marta yurish qiladi va uning o'ziga to'la tobe bo'lishiga erishadi. Shundan so'ng u Eron, Iroq, Kavkaz, Suriya, turkiyaga harbiy yurishlarni boshlaydi. Natijada ulkan imperiya barpo etiladi.

2. "G'alaba bog'i"ning bunyod etilishi va uning yoshlar ongida tarixiy tafakkurni rivojlantirishdagi o'rni haqida ma'lumot bering.

G'alaba bog'i 2020-yil 9-may kuni, fashizm ustidan qozonilgan ikkinchi jahon urushidagi g'alabaning 75 yilligi munosabati bilan Toshkent shahrining Olmazor tumanida barpo etilgan. U o'z tarkibiga "Shon-sharaf" davlat muzeyi, "Mangu jasorat" va "Matonat madhiyasi" monumentlarini, tarixiy-badiiy ekspozitsiyalarni jamlagan.

3. Imom Buxoriyning hadis ilmi taraqqiyotiga qo'shgan hissasi.

Imom al-Buxoriy (asl ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy)(810.21.7, Buxoro – 870.31.8, Samarqand yaqinidagi Hartang qishlog'i) – islom olamining yirik mutafakkiri, buyuk fors muhaddis. Muhaddislar imomi, hadis ilmining sultoni deb ham yuritiladi. Otasi Ismoil o'z davrining yetuk muhaddislarida. Buxoriy yaratgan "Kitob alfavoid" ("Foydali ashyolar haqida kitob"), "Al-Jomi' alkabiyr" ("Katta tayanch"), "Xalq afol alibod", ("Alloh bandalari ishlarining tabiati"), "Al-Musnad alkabiyr" ("Katta tayanch"), "Attafsir alkabiyr" ("Katta tafsir"), "Kitob alxiba" ("Xayrehson haqida kitob") va boshqa asarlarning ba'zilari bizgacha yetib kelmagan, ba'zilari jahonning turli mamlakatlari kutubxonalarida saqlanayotganligi haqida ma'lumotlar bor. Buxoriyning boshqa asarlari orasida "Tafsir al-

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!

Qur'on" ("Qur'on tafsiri") kitobini ham alohida ta'kidlashkerak. Buxoriy asarlari musulmon dunyosining barcha Madrasa va dorilfununlaridapayg'ambar (as) sunnatlari bo'yicha asosiy darslik, qo'llanma hisoblanadi.

21-BILET

1. O'zbekiston hududidagi qoyatosh suratlarining paydo bo'lishi.

Qoyatosh rasmlari - g'orlar (devor va shiplari), qoyatoshlar va alohida toshlarga ishlangan qad. tasvirlar. Rasmlar ishlanish xususiyatlariga ko'ra 2 guruhga bo'linadi: tosh, temir, po'lat yoki boshqa qattiq buyum bilan urib cho'kichlash, chizish, tirnash, ishqalash yo'li bilan yaratilgan rasmlar (ular fanda petrogliflar deb ataladi) hamda tabiiy bo'yoq — oxra va boshqa bilan chizib ishlangan oq, qora, sariq, ko'k, qizil, jigarrang rasmlar. Rangli rasmlarning ishlanish usuli u qadar murakkab emas; lekin petrog-liflarning ishlanishi ancha murakkab. Qoyatosh rasmlari ishlanish uslubiga ko'ra xilma-xildir: soya, oddiy chiziqlar, tarhli, naqshdor bezakli va boshqa uslub xususiyatlariga ega. Qoyatosh rasmlari dunyoning barcha joylarida ma'lum bo'lib, paleolitdan to o'rta asrlargacha bo'lgan davrda yaratilgan. Afrika (Sahroi Kabir va jan. tog'larda), Amerika (Alyaska, And va boshqa tog'lar), Yevropa va Avstraliyaning tog'liq hududlarida ko'p uchraydi; Rossiya (Amur, Lena, Yenisey, Ob, Irtish, Baykal ko'li sohillari), Qozog'iston, O'rta Osiyo (Qoratog', Bo'kantog', Tomditog', Tyanshan. Pomir, Nurota va boshqalar)dan topilgan petroglif Qoyatosh rasmlari diqqatga sazovor. Fransiya, ispaniya, Italiya, Hindiston, Rossiya (Lena, Amur, Baykal ko'li sohillari, Ural, Dog'iston), O'zbekiston (mas, Zarautsoy rasmlari, Sangijumon, Oqsqolotasoy rasmlari)da rangli Qoyatosh rasmlari topib o'rgailgan. Qoyatosh rasmlari avvalo san'at obidasi sifatida san'at tari-xini o'rganishda, arxeologik va tarixiy manba sifatida ibtidoiy va qad. qabilalarning ijtimoiy hayoti va ruhiy olamini o'rganishda katta ahamiyatga ega. Yana q. Sarmishsoy rasmlari, Suratlisoy rasmlari, Takatosh rasmlari, Xo'jakent rasmlari.

2. Ismoil Somoniy maqbarasining o'ziga xos me'morchilik uslublari haqidama'lumot bering.

Ismoil Somoniy maqbarasi – Buxoro shahar madaniyat va istiroqat bog'i hududida joylashgan ko'hna me'moriy yodgorlik, Somoniylar davlatining asoschisi Ismoil Somoniy va lining avlodlari maqbarasi (taxminan 864–868). Maqbara O'rta Osiyo me'morligi va san'ati tarixidagi dastlabki maqbaralardan bo'lib, uning tuzilishida qadimiy sugd me'morligining an'analari saqlanib qolgan buyukme'moriy asardir. Ismoil Somoniy maqbarasi loyihasidan tortib, hajmiy tuzilishigacha geometrik tartib va qoida asosida yaratilganligi aniqlangan. Yozma manbalar va rivoyatlarga kura, maqbarani Ismoil Somoniy otasi qabri ustiga qurdirgan. Sharq tomondagi sag'ana Ismoil Somoniy qabri (849-907) deb taxmin etiladi.

3. "Hirot maktabi" asoschisi Kamoliddin Behzodning ijodi haqida.

Behzod Kamoliddin (1455—Hirot— 1536)—buyuk miniatyurachi musavvir,Sharq uyg'onish davri yetuk san'atkori. Hirot miniatyura maktabi asoschisi; muzahhiblar yetakchisi, ustози. "Ikkinchi Moniy" degan faxriy unvonga sazovor bo'lgan. Tarixchilardan Mirzo Muhammad Haydar, Do'st Muhammad va Qozi Ahmadning ma'lumotlariga ko'ra, B.ni Sulton Husaynning kitobdori Mirak Naqqosh o'z tarbiyasiga olgan. B. musavvirlikni Pir Sayd Axmad Tabriziydan o'rgangan, o'z ijodida musavvir Xalil Mirzo Shohruxiy badiiy uslubini davom ettirib, uni rivojlantirgan va kamolga yetkazgan, yosh musavvir iste'dodi juda tez shakllangan. Bunda Alisher Navoiyning murabbiylik faoliyati ham hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan. Navoiyning shaxsiy kutubxonasi o'sha davrning yetuk san'atkorlari Mirak Naqqosh, Hoji Muhammad kabi musavvirlar, Hofiz Muhammad, Zayniddin Mahmud, Sulton Muhammad

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!

Hyp kabi xattotlar ijod bilan band bo'lganlar. B. shu kutubxonada, ayniqsa, xattot Sultonali Mashhadiy va YoriyMuzahhib bilan yaqin ijodiy hamkorlikda bo'lgan. B. ijodining mavzu doirasi, qahramonlari shu yerda—Navoiy va boshqa san'atkorlar ijodi ta'sirida kamol topgan.

22-BILET

1. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi va uning tarixiy ahamiyati.

O'zbekiston vaziyat qanchalik og'ir va mashaqqatli bo'lishiga qaramasdan va zarracha cho'chimasdan mustaqillik, istiqloq va erkinlik uchun dadillik bilan kurash boshladi. Respublika Oliy kengashining 1989 yil 21 oktyabrda O'zbekistonning Davlat tili haqida qabul qilgan qonuni mustaqillik yo'lidagi dastlabki qadam bo'ldi.

Respublika Oliy Kengashi o'zining 1990 yil 24 martdagi sessiyasida o'sha paytdagi SSSR respublikalari ichida birinchi bo'lib O'zbekistonda prezidentlik lavozimini ta'xis etish haqidagi qaror qilindi. O'sha sessiyada o'tkaziladigan saylovda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining birinchi kotibi Islom Abdug'aniyevich Karimov yashirin ovoz berish yo'li bilan O'zbekistonning birinchi Prezidenti etib saylandi. O'zbekistonda Prezidentlik lavozimining ta'xis etilib Islom Karimovning Prezident etib saylanishi mamlakatimiz mustaqillik yo'lidagi yangi bir yutuq edi. Moskva o'sha paytdagi ittifoqdosh respublikalar raxbarlari orasida islom Karimovning birinchi bo'lib prezidentlikka saylanganligini juda salbiy qabul qildi.

O'zbekiston o'zining erkinlik va mustaqillik sari uzoqni kuzlagan adolatli, qonuniy xarakatni zarracha bo'lsa-da to'xtamasdan davom ettiraverdi. Bu sohada erishgan eng katta muvaffaqiyatlardan yana biri - O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1990 yil 20 iyunda qabul qilingan «Mustaqillik Deklaratsiyasi»dir. «Mustaqillik Deklaratsiyasi»da O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilingan. Ana shu muhim xujjatda, shuningdek, O'zbekiston davlatining o'z xududida barcha tarkibiy qismlarida va barcha tashqi munosabatlarda tanxo xokimligi, davlat xududi chegarasi dahlsizligi va bu xudud Xalqning muxokamasiga qo'yilmay turib, o'zgartirilishi mumkin emasligi belgilab qo'yilgan.

Mustabid, ma'muriy-buyrukbozlik tuzumi tarafdorlari chok-chokidan smirilib borayotgan va siyosiy buxron botqog'iga botib qolgan Ittifoqni qanday qilib bo'lsa-da saqlab qolish ilinjida kurashni avj oldirib yubordilar. O'z maqsadlarini amalga oshirish uchun turli yo'llar, vositalar va imkoniyatlardan foydalandilar. Bir gurux amalparastlar 1991 yilning 19-21 avgustida Moskvada Yanayev raxbarligida davlat to'ntarish qilishga xam urinib ko'rdilar. Favqulodda xolat davlat Qo'mitasi-GKChP tuzilib M.S.Gorbachev xokimiyatdan zo'ravonlik yo'li bilan chetlashtirildi. Fitna qatnashchilarining asosiy maqsadlari SSSR tarkibidagi barcha Xalqlar va millatlarning mustaqillikni qo'lga kiritishlariga yo'l kuymaslik, Ittifoqdan chiqish yo'lidagi xarakatlarni bo'g'ib tashlash, eskirib, o'z umrini tugatib bo'lgan totalitar tuzumni xalok bo'lishdan saqlab qolish edi.

O'zbekiston raxbariyati Islom Karimov raxbarligida g'oyatda murakkab va qaltis bir paytda ro'y berayotgan voqealar va siyosiy jarayonlar rivoji va taraqqiyotiga siyosiy xushyorlik va donolik bilan baxo berdi. O'zbekistonning o'z mustaqilligiga erishish uchun boshlangan xarakati kat'iy ekanligi, bu yo'ldan hech qachon qaytmasligi yana bor alohida ta'kidlandi.

2. Ulug'bek madrasasi (Samarqand)ning o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumot bering.

Ulug'bek madrasasi — Buxorodagi me'moriy yodgorlik (1417). Markaziy Osiyodasaqlanib qolgan eng ko'hna madrasa. Ulug'bek qurdirgan madrasaning eng qadimiysi. Abdullaxon II davrida katta ta'mir ishlari olib borilgan (1586). Bosh tarzida mahobatli peshtoq, 2 qanotida 2 qavatli hujralar va burchaklarida guldastalar joylashgan. Guldastalar tepasi qubbali qilib ishlangan. Madrasaning asosiy bezagi peshtog'ida bo'lib, unda sirkor g'ishtchalardan tashqari

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!

rang-barang gulli parchin vakoshindan foydalanilgan. Ravokli peshtoqdan miyonsaroy orqali hovliga o'giladi. Miyonsaroy ichki gumbazi 12 qirrali, g'ishtdan to'rsimon shakl qilinib, oralariga ko'k va havo rang koshin terilgan. Hovli (26x25 m) atrofini 2 qavatli hujralar qatori va peshtoqli 2 ayvon egallagan. Hovlining shim. va jan. tomonlari qisqaroq ko'rinishga ega bo'lib, devorlari, ravoq va peshtoqlari oq, feruza va binafsha rang sirkor g'ishtlar bilan pardozlangan. Hujralar ichi ganch suvokli. Madrasa (53x41,6 m) uncha katta emas, hujralari mo'jiz, o'zaro mutanosib, ichki va tashqi tuzilishi o'ziga xos. Masjid (15,5*5,5 m) va darsxona (5,5x5,5 m) gumbazli, miyonsaroyning 2 yon tomonida joylashgan. Miyonsaroyning 2 qavatida kutubxona bor. Xoja Sa'd Jo'yboriy tomonidan tashqi pesh tog'i va yonlaridagi hujralar ta'mir etilib (1586), peshtoq bezagida mayda yozuvli va naqshli koshin ishlatilgan. Hovli g'arbidagi hujra tepasida ganchkori bezaklar orasida ta'mirlovchi usta Ismoil ibn Tohir ibn Mahmud Isfahoniy nomi saqlangan. Abdurazzoq Samarqandiyning xabar qilishicha, Ulugbek (1419 y. 28 noyabrda) madrasaga kelib ilm oluvchi talabalarga in'omlar ulashgan. Bizgacha Ulug'bek madrasasi ancha o'zgargan holda yetib kelgan. 16—17-asrlarda, 1950—70 va 1990—96 yillarda ta'mirlangan. Naqshlarida yulduzsimon bezaklar ko'p. Ayvon ustunlari zarhallangan. Eshik tabaqalariga arab tilida "Bilim olish har bir musulmon erkak va ayol uchun farzdir", degan ibora o'yibozilgan.

3. Ma'rifatparvar ayol Mohlaroyim – Nodira hayoti va ijodi.

Nodira (taxallusi; ismi Mohlaroyim) (1792, Andijon — 1842, Qo'qon) — shoira, ma'rifatparvar va davlat arbobi. "Komila" va "Maknuna" taxalluslari bilan ham she'rlar yozgan. Otasi Andijon hokimi Rahmonqulbiy — ming qabilasidan, Farg'ona hukmdori Olimxonning tog'asi. Olimxon ukasi Umarxonga Marg'ilon hokimligini beradi va uni 1807-yilda Nodiraga uylantiradi. Nodira shu xonadonda she'r yozishni mashq qiladi, shoira Uvaysiy bilan tanishadi, uni muallima sifatida saroyga taklif etadi. Nodiraning turmush yo'ldoshi Amir Umarxon ham Amiriy taxallusida ijod qilgan. 1810-yilda akasi Olimxon o'rniga taxtga chiqqan Umarxon bilan Qo'qonga keladi. 1822-yil Umarxonning fojeali vafotidan so'ng o'g'li Ma'dalixon bilan birga Qo'qon xonligini boshqaradi. Madrasa, masjid, karvonsaroylar qurdiradi. Ilm ahliga rahnamolik, faqirlarga homiylik qiladi. 1842-yil Buxoro xoni Amir Nasrulloh tomonidan qatl etiladi.

Uning 10000 misraga yaqin asari yetib kelgan. G'azal, muxammas, ruboiy, fard kabi ko'plab janrlardan faol foydalangan. She'rlarida Navoiy, Fuzuliy, Bedil an'analarini davom ettirgan. Nodira g'azallarida firoq, dard iztiroblari samimiy bayon qilingan.

23-BILET

1. Buxoro xonligini tashkil topishi va uning davlat boshqaruvida Xivaxonligidan farqli jihatlari.

Muhammad Shayboniyxonning o'limidan so'ng taxtga bevosita uning avlodlari emas, amakisi Ko'chkunchi Sulton o'tqazilgan. To'g'ri, XVI asrning 40- yillaridan so'ng bu urfodatga rioya etilmay qo'yilgan. Ko'chkunchixonidan so'ng esataxtga uning o'g'li Abu Said (1530 —1533) o'tirdi. Undan keyin esa hukmdorlik Shayboniyxonning ukasi Mahmud Sultonning o'g'li Ubaydullaxon (1533 —1540) qo'liga o'tdi. Ubaydullaxon poytaxtni Samarqanddan Buxoroga ko'chirtirdi. Ubaydullaxon Buxoroga ota meros mulk deb qarar edi, chunki Shayboniyxon hayotligidayoq Buxoro hokimligini ukasi Mahmud Sulton (Ubaydullaxonning otasi)ga bergan edi. Shu tariqa, shayboniylarning Movarounnahrda tashkil etgan davlati endilikda rasmiy ravishda Buxoro xonligi deb ataladigan bo'ldi.

2. Xudoyorxon saroyi haqida ma'lumot bering.

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!

Xudoyorxon saroyi (1863—1870) alohida o‘rin tutadi. U o‘zining bezaklari, naqshlari rangbarangligi, yorqin jilosi bilan ajralib turadi. Xonlikning yirik markazi Toshkentda XIX asming o‘rtalarida qadimiy inshootlardan Hazrati Imom majmuasini, 1859-yilda Baroqxon madrasasini ta‘mirlash ishlari boshlanadi. Shu davrda Baroqxon madrasasi qarshisidagi Mo‘yi muborak madrasasining (XX asr boshida) qurilishi yakunlangan. Tillashayx jome masjidi singari inshootlar bunyod etildi. Bu vaqtga kelib Buxoro amirligi me‘moriy qiyofasida ham o‘zganlilar sodir bo‘ldi. Shahar va qishloq aholisi yashaydigan turarjoylar va mahalla guzarlaridagi qurilishlar joylami yanada obod va ko‘rkam qildi. Kufiy, rayhoni, nasta‘liq yozuv uslublaridan binolami bezashda foydalanish davom ettirildi. Xudoyorxon saroy devorlaridagi xattotlik ishlarini bajarishni ikki shaxsga — Turdi Ali va Mirzo Mahmudlarga topshirgan. Turdi Alining xon saroyidagi nufuzi baland bo‘lgan va ba‘zi madaniy tadbirlarda xon undan maslahatlar olgan.

3. Ahmad al-Farg‘oniyning dunyo ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissasi.

Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Nosir al-Farg‘oniy 797-865-yillarida yashab ijod qilgan buyuk ajdodimizdir. U o‘z asarlari bilan fan tarixida katta iz qoldirdi. U matematika, geografiya, astronomiya, tarix sohalarida ijod qildi. Uning ijodiy faoliyati Bag‘dodda ulug‘ mutafakkir olim al-Xorazmiy rahbarligidagi «Baytul-hikma» bilan bog‘liqdir.

Ahmad al-Farg‘oniy (to‘liq ismi Abul Abbas Ahmad ibi Muhammad ibn Kasiral- Farg‘oniy) (taxminan 797, Farg‘ona - 865, Misr) – astronomiya, mat., geogr. va boshqa ilmiy yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatgan o‘zbek qomusiy olimi. Sharqda Al-Farg‘oniy, Yevropada Alfraganus (Alfraganus) taxalluslari bilan mashhur.

24-BILET

1. Ikkinchi jahon urushi va unda xalqimizning g‘alabaga qo‘shgan hissasi.

Ikkinchi jahon urushi 1939-yilning 1-sentabridan 1945-yilning 2-sentabrigacha, ya‘ni 6 yil davom etdi. Bu urush dunyoning 61 davlatini o‘z donnga tortdi. Ularda dunyo aholisining 80 foizi yashar edi. Armiya saflariga jami 110 mln. kishi safarbar etildi. Ikkinchi jahon urushi tarixda eng dahshatli, eng ko‘p talafot va kaita vayrongarchilik keltirgan urush sifatida iz qoldirdi. Chunonchi, maxsus adabiyotlarda qayd etilishicha, bu urushda 65—67 mln. kishi halok bo‘lgan. Ularning yarmi tinch aholi edi.

Vayrongarchilikdan ko‘rilgan zarar va urush xarajati birgalikda 4 trillion dollarni tashkil etdi. Bu urush ayni paytda eng dahshatli qurollar ishlatilgan urush ham edi. Urush oxirida hatto raketa quroli hamda atom bombasi yaratildi va ular insoniyatga qarshi ishlatildi. Fashizmning dunyoga hukmron bo‘lishga intilishi va insoniyat boshiga keltirishi mumkin bo‘lgan kuifati antifashistik kuchlarni birlashtirdi. Erksevar xalqlar birgalikda fashizmga qarshi kurashdilar. Va, nihoyat, g‘alaba ham qozondilar. Biroq bu g‘alaba-ga osonlikcha erishilmadi.

Avalgi mavzuda qayd etilgandek, 1939-yilning 1-sentabrida Germaniya Polshaga hujum qildi. Bunga javoban Buyuk Britaniya va Fransiya Germaniyaga qarshi urush e‘lon qildilar va shu tunda urush boshlanib ketdi. Polsha armiyasi kam sonli va yaxshi qurollanmagan edi. Shunday bo‘lsa-da, u jasorat bilan qarshilik ko‘rsatdi. Lekin kuchlar teng bo‘lmagani uchun Polsha armiyasi ikki hafta ichida tor-mor etildi. 17-sentabr kuni Polsha hukumati Prezident Ridz Smigli boshchiligida mamlakatni tashlab chet elga chiqib ketdi.

Xuddi shu kuni Germaniya bilan kelishuvga binoan sovetlarning 209 mingdan ortiq jangchi va zobitlari Polshaga bostirib kirdi hamda 28-sentabr kuni Moskvada Sovet davlati va Germaniya o‘rtasida «Do‘stlik va chegara to‘g‘risida» shartnoma imzolandi. Unga ko‘ra, mustaqil Polsha davlati tugatildi va bo‘lib olindi. Ayni paytda G‘arbiy Ukraina va G‘arbiy Belorussiya Sovet

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo‘ling!

davlatiga berildi. Polshaning Germaniya bilan chegaradosh bo'lgan yerlari Germaniya-ga o'tdi. U yerda nemis general-gubernatorligi tuzildi. 1939-yilning 25-sentabrida imzolangan sovet-german shartnomasiga ko'ra, sovet hukumati Boltiqbo'yi respublikalaridan Sovetlararmiyasini bu respublikalarda joy-lashtirish va o'zaro yordam to'g'risida shartnoma imzolashni talab eidi. Boltiqbo'yi respublikalarining bu talabga bo'ysunmaslikka ilojlari edi. 30-noyabr kuni sovet armiyasi Finlandiyaga hujum qildi. Bu qilmishi uchun Sovet davlati Millatlar Ligasidan chiqarildi. (Millatlar Ligasiga 1934-yilda qabul qilingan edi.)

Buyuk Britaniya va Fransiya Germaniyaga qarshi urush e'lon qilgan bo'lsalar-da, biroq faol harbiy harakatlar boshlamadilar. Germaniya armiyasining asosiy kuchlari Polsha bilan band bo'lib qolgan paytda bunday imkoniyat bor edi. Buyuk Britaniya va Fransiyaning bu pozitsiyasi 1940-yilning bahorigacha davom etdi. Ularning faolsizligi urush tarixiga «g'alati urush» nomi bilan kirdi. Buyuk Britaniya va Fransiya o'zlarining qudratli harbiy-dengiz flotlari kuchi bilan Germaniyani blokadaiskanjasiga olishni rejalashtirgan edilar. Ayni paytda ular Fransiya — Germaniya chegarasida Fransiya bunyod etgan kuchli mudofaa inshootlari Germaniyaning g'arbga hujumga o'tishiga yo'l qo'ymaydi, bordi-yu hujumga o'tganda ham, uni yoribo'ta olmaydi, deb ishonidilar.

Bu orada Sovet qo'shinlari Finlandiya armiyasini mag'lubiyatga uchratdi. 1940-yil 12-martda sovet-fin tinchlik shartnomasi imzolandi. Unga ko'ra, Kareliya bo'g'ozini Viborg shahri bilan birgalikda Sovet davlatiga o'tdi. Ap-rel oyida Germaniya armiyasi G'arbiy frontda hujumga o'tdi. 9-aprel kuni Daniya va Norvegiya bosib olindi. 14-may kuni Gollandiya, 28-may kuni esa Belgiya taslim bo'ldi. Shimoliy Fransiyada joylashgan ingliz-fransuz harbiy qismlari qurshovga tushib qoldi. Biroq ularning katta qismi ko'p talafotlar bilan Buyuk Britaniyaga o'tib ketishga muvaffaq bo'ldi. O'z ittifoqchisi Germaniyaning birin-ketin zafarli g'alabalaridan ruhlangan Italiya 10-iyun kuni Fransiya va Buyuk Britaniyaga qarshi urushga kirdi. Qisqa muddat ichida Fransiya qo'shinining katta qismi tor-mor etildi. 14-iyunda nemislar Parijni egalladi. 22-iyun kuni Kompen o'rmonida Germaniya va Fransiya o'rtasida yarash bitimi imzolandi. 25-iyun kuni shunday yarash bitimi Italiya bilan Fransiya o'rtasida ham imzolandi. Bu bitimlarga, ko'ra Fransiya harbiy harakatlarni to'xtatdi. Armiya va flotni qurolsizlantirdi. Pol Reyno hukumati iste'fo berdi. Germaniya Fransiya hududining uchdan ikki qismini okkupatsiya qildi. Parij shahri ham okkupatsiya hududi tarkibida edi. Okkupatsiya qilinmagan hududda marshal Peten boshchiligida qo'g'irchoq hukumat tuzildi va uncha katta bo'lmagan Vishi shahrida joylashdi hamda Peten hukumati Germaniya bilan hamkorlik qilish majburiyatini oldi.

Dastlab Fransiyaning barcha yirik siyosiy arboblari va mustamlakalar-dagi ma'muriyatlar Peten hukumatini tan olishdi. Faqat u davrda hali mashhur bo'lmagan general de Goll yarash bitimini ham, Peten hukumatini ham tan olmadi. U Buyuk Britaniyaga jo'nab ketdi. U yerda «Erkin Fransiya» harakatini tuzdi va barcha vatandarlar kuchi bilan Germaniyaga qarshi kurashga chaqirdi.

2. Sherg'ozixon madrasasining o'ziga xos me'morchilik uslublari haqidama'lumot bering.

Sherg'ozixon madrasasi — XVIII asrning birinchi yarmi. Bu madrasa Xorazmdagi o'quv muassasalari orasida eng ko'hnasidir. Uni Xiva xoni Sherg'ozixon 1719 yili Mashhadga muvaffaqiyatli safar qilgandan so'ng ana shu g'olibona safar sharafiga qurdirgan. Madrasa binosi bizning davrimizgacha asl holicha to'la yetib kelmagan. Yillar mobaynida nurab, yaroqsiz holga kelib qolgan. Mazkur madrasa o'z davrida yirik bilim o'chog'i bo'lib, unda ko'plab tolibi ilmlar tahsil olganlar. Jumladan, turkman xalqining mutasavvif shoiri

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!

Maxtumquli ham mana shu bilim dargohida ta'lim olgan.

3. Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti.

Z.M.Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijonda tug'ilgan. Otasi Umarshayx Mirzo bo'lgan. Umarshayx Mirzo 1494-yilda vafot etadi hokimiyat 12 yoshli Boburga qoladi. Bobur Samarqandga 4marta yurish qiladi. 1496,1497,1500,1511- yillarda. Bobur 1501- yildagi mag'lubiyatidan so'ng Kobulga ketadi. 1512-yilda Ubaydulla sultondan mag'lub bo'lib kobulga ketadi. Kobulni o'gli Kamron Mirzoga qoldirib o'zi Hindistonga yurish qiladi 1526-yilda Dehlini egallaydi. 1526-yili 27- aprelda Bobur nomiga xutba o'qiladi. Bobur 1530-yili 26-dekabrda 47 yoshida vafot etadi. Boburni Bog'I Oromga dafn etadi. Z.M.Bobur Mubayyin Turkiy Devon Boburnoma asarlarini yozadi. Boburnoma asari 1493-1529- yilgi voqealar haqida bayon etilgan. Boburning 510 yilligi 1993-yili keng nishonlandi.

25-BILET

1. O'zbekiston va YUNESKO: tarixiy yodgorliklarni saqlab qolish haqidama'lumot bering.

O'zbekiston YUNESKOga 1993 yilda mustaqil davlat sifatida a'zo bo'lgan va bu Tashkilot bilan uning har bir sohadagi ishlarida faol ishtirok etib kelmoqda. Respublikada qilinayotgan ishlarni ko'rib, 1997 yilda Tashkilotga a'zo mamlakatlar O'zbekiston Respublikasini 4yilga Boshqaruv Qo'mitaga boshqaruv organiga saylagan. Shu yo'sinda, 2009 yildan 2013 yilgacha O'zbekiston YUNESKOning Boshqaruv Qo'mitasiga a'zo sifatida qaytatdan saylangan. Tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan voqyealardan biri, 1998 yil 6-7 noyabr kunlari O'zbekistonda YUNESKO Boshqaruv Qo'mitasining oxirgi 155-majlisi bo'lib o'tgan, unga ko'ra Toshkent deklaratsiyasi "A'zo mamlakatlarda YUNESKOning faoliyati va madaniyati" qabul qilingan. YUNESKO rahbarligida O'zbekiston xalqi uchun muhim bo'lgan, tarixga, fanga, dunyo xalqlari madaniyatiga hissa qo'shgan olimlarning sana va yubileylar nishonlanishi ko'zda tutildi.

2. O'rta Osiyo me'morchiligining noyob durdonasi Go'ri Amir maqbarasi haqida ma'lumot bering.

Samarqanddagi me'moriy yodgorlik. Xalq orasida Go'ri Amir yoki Go'ri Mir (Mir Sayyid Baraka) deb nomlanib kelinadi. Maqbaraga temuriylar sulolasiga mansub kishilar (Amir Temur, uning piri Mir Sayyid Baraka, o'g'illari Umar-shayx, Mironshoh va Shohrux, nabiralari Muhammad Sulton, Ulug'bek va b.) dafn etilgan. Boburning ta'kidlashicha, dastlab Temurning nabirasi Muhammad Sulton Mirzo Samarqand qal'asi jan.da Toshqo'rg'on — chaqarda Madrasa qurdirgan. Muhammad Sulton halok bo'lgach (1403), Amir Temur uning xotirasiga maqbara qurish haqida farmon berdi. Maqbara Madrasa hovlisining to'riga bunyod etilgan. Bizgacha, asosan, peshtoqli darvozasi bor hovli va maqbara binosi saqlangan.

Arxeologik tadqiqotlar natijasida maqbara hovlisining ikki yonidan Muhammad Sulton qurdirgan Madrasa va xonaqoh qoddiqlari topilgan. Madrasa va xonaqoh chorsi hovlining sharqiy va g'arbiy tomonlarini egallagan. Hovlining jan.da gumbazli maqbara joylashgan. Maqbaraga jan. dan, Ulug'bek qurdirgan dalon (1424) orqali kiriladi. Maqbaraning chortoq tarhli ziyorat-xonasi baland toqi — ravoqli, tepa-si yozuv hoshiyalari va ichki gumbaz bilan qoplangan. Tashki gumbazi 64 qobirg'ali, baland poygumbaz (diametri — 15 m, bal. 12,5 m) ga o'rnatilgan.

3. Yulduzlar va sayyoralar izlovchi – Mirzo Ulug'bek.

Mirzo (keyinchalik Sulton) Muhammad ibn Shohruh ibn Temur Ulug'bek Ko'ragon —

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!

Temuriylar davlatining hukmdori, Shohruhning o'g'li. Buyuk O'zbek astronomi (Yulduzshunos) va matematiki. Mirzo Ulug'bek o'n beshinchi asrning nobig'asi, Amir Temurning sevimli nabirasi va Shohrux Mirzoning o'g'li bo'lib, asl ismi Muhammad Tarag'aydir. Yoshligidan uni „Ulug'bek deya izzat qilishgan va yosh shahzoda keyinchalik ayni shu nom bilan mashhur bolgan. Xat-savod, diniy vadunyoviy ilmlarning asoslari yosh Muhammad Tarag'ayga begona emas edi. U Buyuk Yulduzbilimchisi va riyozidon bo'lgan, Qur'on karimni yoddan bilgan. Ulug'bekning onasi Gavharshod begim bo'lsa ham, Temur saroyida hukm surgan an'anaga ko'ra shahzoda sohibqironning katta xotini Saroymulk xonim tarbiyasiga topshiriladi. 3-4 yoshlaridayoq shayx Orif Ozariy unga murabbiy qilib tayinlanadi. U yoshgini ko'pincha o'rtasharq va hindistonda o'tkazgan bo'lib Amir Temuroiimidan keyin Samarqand ya'ni Koshg'arli Mahmudga ko'ra Samizkentda yerlashgan. Keyinchalik Otasi Shohrux Mirzo Hirotni o'z davlatining boshkenti tayinlagach, o'n-olti yoshlik Ulug'bek 1409-yilda Samarqand boshchisi bo'lib, 1411-yilda esa Movarounnahr xonliklarining erkin hukmdori bo'lgan.

26-BILET

1. Harakatlar strategiyasi va uning mohiyati.

2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirish harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo'nalishi

1. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari
2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari
3. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari
4. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari
5. Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar

2. Buxoro arki haqida ma'lumot bering.

Buxoro arki — Buxorodagi qadimiy shaharsozlik yodgorligi. Ark dastlab milloddanavvalgi 1-asrda qurilgan. Arablar istilosiga qadar arkda shahar hokimlari — buxorxudotlar yashagan. Somoniylar davrida (9— 10-asrlar) qayta qurilib devor va burjlar bilan mustahkamlangan. Qoraxoniylar davrida (11—12-asrlar) va mo'g'ullar bosqinchiligi vaqtida (13-asr) ark bir necha bor vayron qilingan. Hozirgi qiyofasi asosan Shayboniylar sulolasi davri (16-asr)da shakllangan. Buxoroning 2500 yilligimunosabati bilan ark ichkarisidagi taxt joylashgan hovli ta'mirlanib, o'z holiga keltirildi. Ark devorlari yangilandi. "Go'riyon" darvozasi qayta tiklandi va boshqa obodonlashtirish ishlari olib borildi. Yer sathidan 2,5–3 m chuqurlikda gumbazsimon yer osti yo'li borligi aniqlandi. Arkda Buxoro davlat me'moriy-badiiy muzey qo'riqxonasi joylashgan.

3. Amir Umarxon hayoti va faoliyati.

Amir Umarxon davridagi yirik shoirlardan biri Mahmud (asl ismi Mahmud) XVIII asr oxirida tug'ilib, 1444-yili vafot etgan. Qo'qondagi madrosayi Mirza o'qigan, keyin qo'shinda sipohlik qigan. Mahmurning hajviy she'rlar devoni saqlangan bo'lib unda oltmish to'qqiz asar (3717) misra jamlangan hajviy asarlaridaxalqqa jabr yetkazgan keskin taqid ostiga olgan. Xususan, "hapalak" she'rlarida hapalak qishlog'ining ayanhli manzaralari aks ettirilgan.

27-BILET

1. Yunon-makedon istilochilariga qarshi ozodlik harakati –

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!

Spitamanqo'zg'olonining sodir bo'lishi.

Mil. avv. 329-yil da yunon-makedon qo'shinlari Maroqandani egalladilar. Ularga qarshi qo'zg'olonga Spitaman boshchilik qildi. Ancha qo'shin to'plagan Spitaman Maroqandani qamal qildi. Aleksandr qamalda qolganlarga yordamga uch mingga yaqin jangchidan iborat qo'shin jo'natadi. Qadimda «Politimet» deb atalgan Zarafshon daryosi

bo'yida makedonlarga pistirma qo'ygan Spitaman dushman guruhini tamomila qirib tashlaydi. Shunda Aleksandrning o'zi qo'zg'olonni bostirishga o'tlanadi. Yunonlarning kata kuchlari yaqinlashib kelayotganidan xabar topgan Spitaman qamalni to'xtatadi va o'z qo'shinlarini sahro sari boshlab ketadi.

2. Baroqxon madrasasining o'ziga xos me'morchilik uslublari haqida ma'lumot bering.

Baroqxon madrasasi - Toshkentda qurilgan Madrasa (1531/32 — 16-asr 2-yarmi). Hovli atrofida hujralar va ichki tarafida peshtoq bo'lib, madrasaning g'arbiy qismi birmuncha oldinga chiqqan. Poydevori toshdan, qalin devorlari turli hajmdagi pishiqlik ishtidan ishlangan. Ba'zi joylari sinchli. Baroqxon madrasasi o'rnida dastlab 2 (katta va kichik) maqbara bo'lgan. Kichik maqbarada Baroqxon qabri bor. Uning to'rt tomonidagi eshiklaridan uchta keyinroq berkitib tashlangan (qolgan eshikdan zina bilan tomga chiqilgan). 1904 y. da masjidga aylantirilgan katta maqbarada Toshkent hokimi Suyunchxo'ja qabri joylashgan. Baroqxon ikki maqbarani o'z ichiga olgan Madrasa qurdirgan. Madrasaning sharq tomonidagi ulkan peshtoqqa rang-barang sirkor g'ishtchalardan namoyon terilgan. U handasiy va girih naqshlar bilan hoshiyalangan. Peshtoqning yuqori qismi saqlanmagan. Asosiy peshtoqning orqa tomonida yana peshtoq va besh qirrali ravoq bor. G'arb tomondagi ichki peshtoq ko'k gumbazning tarkibiy qismi bo'lgan. Baroqxon madrasasi ning to'rt burchagida cho'ziq xona (qorixona)lar bo'lgan. Bino shakli va bezaklari o'z holicha qolgan. Uning 22 m li gumbazi ko'k sirkor g'ishtchalar bilan pardozlangan (gumbaz 1868 y. gi zilzila paytida qulab tushgan). Gumbaz ostidagi 4,5 m li poygumbazga turli rangdagi sirkor g'ishtchalardan handasiy va girih naqshlar terib yaratilgan, Qur'on suralari bitilgan. Maqbara ichki qismidagi bezaklar keyinchalik ko'chib tushgan. Ichki devorning tepa qismida ganchdan ishlangan naqshlar bo'lib, ularga oltin suvi yugurtirilgan, pastki qismida olti burchakli sopollardan terilgan keng izarabor (ular yashil sirkor, zarhalli g'ishtchalar bilan ajratilgan). 20-asr boshlaridagi ta'mir vaqtida qad. bezaklarning qoldig'i ko'chirib tashlanib, oq ganch bilan suvalgan. Baroqxon madrasasi naqshlarining go'zalligi, qurilish uslubi jihatidan Samarqandning eng yaxshi me'moriy yodgorliklari (15-asr ikkinchi yarmidagi Oq saroy va Ishratxona)ga yaqinlashadi. 1946, 1949, 1951, 1967 y. larda ta'mir ishlari olib borilgan. Baroqxon madrasasi da O'zbekiston Musulmonlari idorasi joylashgan.

3. Berdaq — qoraqalpoq adabiyotining asoschisi.

Berdag (taxallusi; asl ismi Berdimurod Qarg'aboy o'g'li) (1827—Mo'ynoq tumani—1900)—shoir, qoraqalpoq adabiyoti asoschisi. Avval ovul maktabida, so'ng madrasada tahsil ko'rgan. Alisher Navoiy, Fuzuliy, Maxtumquli va qoraqalpoq shoiri Kunxo'ja asarlarini chukur mutolaa qilgan, ulardan o'rgangan. U tarixni va xalk, ogzaki ijodini yaxshi bilgan. B.ning lirik she'rlarida, dostonlarida qoraqalpoq xalqining 18—19-asrlardagi ijtimoiy hasti o'z ifodasini topgan. U o'z davri voqealariga, ijtimoiy munosabatlarga zukko shoir sifatida baho beradi. Asarlarida tenglik, insonparvarlik, adolat va vatanparvarlik g'oyalari ilgari suriladi. B. ijodida mehnatkash xalqning ahvoli asosiy mavzudir ("Bo'lgan emas", "Soliq", "Bu yil", "Umrim" va boshqalar). Shoir qariqat uchun, mehnatkash ommaning baxti va kelajagi uchun fidokor kurashchilarni orzu qiladi ("Xalq uchun", "Menga kerak" va boshqalar). Tarixni mavzudagi

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!

"Avlodlar", "Omongeldi", "Azadosbiy", "Ernazarbiy" asarlarida shoir xalq qaxramonlaripi faxr bilan kuylaydi. B.ning "Avlodlar" asari tarixiy voqealar solnomasi bo'lib, qoraqalpoq xalqi bilan boshqa turkiy xalqlar hayotidagi mushtarak voqealar qalamga olinadi, qabila va xalqlarning kelib chiqishi haqidagi fiqolari bayon qilinadi. B. ba'zi ta'magir ruhoniylarning kirdikorlarini fosh etadi ("Yaxshiroq", "Shekilli" va boshqalar), ayollar huquqini himoya qiladi, yoshlarni vatanni sevishga, ma'rifat cho'qqilarini egallashga chaqiradi ("O'g'limga", "Ahmoq bo'lma" va boshqalar).

28-BILET

1. Movarounnahrda arab xalifaligining o'rnatilishi va uning o'lkadagi o'zigaxos davlat boshqaruvi.

Arab xalifaligi (632 — 1258) — Arabiston yarim oroli, Yaqin va O'rta Sharq, Shimoliy Afrika, Ispaniya, Markaziy Osiyo va Kavkazortini o'z ichiga olgan saltanat.

VII — VIII asrlarda tashkil topgan. Arab Xalifaligi asoschisi payg'ambar Muhammad sollallohu alayhi vasallamning eng yaqin safdoshi xalifa Abu Bakr Siddiqdir. Arablar yuqorida zikr etilgan mamlakatlarni 630-715 yillar orasida bosib olganlar. Bu mamlakatlar asosan „Xulafoi Roshidin“ („To'g'ri yo'ldan boruvchi xalifalar“) va umaviylar zamonida fath etildi. Xalifa Umar ibn Xattob davrida (634-644-yillar) kuchli markazlashgan davlat va jangovar armiya tashkil topadi. Ko'p sonli arab qo'shinlari o'z zarbalarini Vizantiya va Eronga qarshi yo'naltiradilar. Bir necha o'n yilliklar mobaynida arablar Suriya, Iroq, Eron, Misr va butun Shimoliy Afrikani istilo qiladilar. Arablar Vizantiyaga kuchli zarba beradilar. Jangari arablar g'arbga va sharqqa tomon tobora ichkarilab boradilar. Arablar armiyasining asosiy zarbdor kuchini otliq qo'shinlar tashkil qilardi. VII asr va VIII asrning birinchi yarmi mobaynida ulkan davlat — Arab xalifaligi tashkil topadi. Damashq shahri uning poytaxtiga aylanadi. Lekin Abbosiylar bu ulkan hududni butun saqlab qololmadilar. Ichki ixtiloflar ta'siri ostida Arab xalifaligi VIII asrning oxirlaridan boshlab mayda-mayda qismlarga parchalanib keta boshladi: 788-yilda Mag'ribning g'arbiy qismida (hozirgi Marokash) idrisiylar (788 — 985), uning sharqiy qismida (hozirgi Tunis) ag'labiylar sulolasi (800 — 909) hukmronligi o'rnatildi. Xuroson va Movarounnahrda esa IX asrning 20-yillaridan boshlab mahalliy sulolalar: tohiriylar (821 — 873), safforiylar (873 — 900) va somoniylar (865 — 999) bosh ko'tarib chiqdilar. Ular Arab xalifaligiga nomigagina tobe bo'lib, aslida mustaqil hukmdor edilar. Arab xalifalariga 945-yilda boshlab shialikka e'tiqod qiluvchi Eron buvayhiylari hukm o'tkaza boshladilar. Buvayhiylar Bag'dod va butun Iroq hududlarini nazoratga olib, xalifani nomiga hukmdor qilib qoldirdilar. 1055-yilda saljuqiy turklar sultoni To'g'rulbek buvayhiylarga zarba berib, Bag'dodni egallaydi. Saljuqiylar abbosiy xalifalarni avvalgi mavqesiga qaytaradilar, lekin amalda ular turklarga tobe etiladi. XII asr boshlarida Saljuqiylarning zaiflashuvi abbosiy xalifalarni nisbatan erkin hukmdorga aylantiradi. Xorazmshoh Takash (1172-1200) ning 1194-yilda Iroqdagi saljuqiylarga bergan zarbasi abbosiylarni saljuqiylardan tamomila mustaqil qiladi. Xalifa an-Nosir davrida Takashning vorisi Muhammad Xorazmshoh bilan ziddiyatlar vujudga keladi, ammo Xorazmshohning 1217-yilgi Bag'dod yurishi muvaffaqiyatsiz tugaydi, xalifalik mustaqilligini asrab qoladi. Arab xalifaligi 1258-yilda mo'g'ullar tarafidan tugatildi.

2. Dishan qal'a me'moriy yodgorligining o'ziga xos vazifasi haqida ma'lumotbering.

Dishan qal'a (tashqi qal'a) - Xivaning rabod qismi. 1842 y.da Xorazm xoni Olloqulixon Xivani tashqi hujumdan saqlash uchun devor (uz. 6250 m, bal. 7-8 m, devor qalinligi 5-6 m.) b-n o'ratgan. Qurilishga ko'p aholi jalb qilinib, qal'a 6 haftada bitkazilgan. Unda 10 darvoza bo'lgan: Hazorasp (Qo'y), Pishkanik, Bog'i shamol, Shayxlar, Tozabog',

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!

SHohimardon, Doshoyoq, Qo'sh, Gadoylar va Gandumiyon (Hazorasp va Qo'sh darvozalaridan boshqalari saqlanmagan). Qal'aning bosh ko'chalari (Hazorasp, Bog'i shamol, Shohimardon, Qo'sh) Nurullaboy saroyi, Sayidboy madrasasi va masjidi, Sayid Mohirui jahon, To'rt Shabboz, Abdolbobo majmualari kabi ko'pgina obidalar saqlanib qolgan. Qal'ada hozir ma'muriy va maishiy binolar, xiyobonlar barpo etilgan.

3. Mashhur fiqhshunos olim Burhoniddin al-Marg'inoniy hayoti va faoliyati.

Burhoniddin Marg'inoniy (to'liq ismi Abulhasan Ali ibn Abubakr ibn Abduljalil al Farg'oniy al-Rishtoniy al-Marg'inoniy) (1123.23.9, Rishton tumani, Dahbet qishlog'i — 1197.29.10, Samarqand) – buyuk faqih, imom. Dastavval otasi Abubakr ibn Abduljalil so'ng Simom Bahouddin Ali ibn Muhammad Asbijobiy qo'lida tahsil ko'rdi. Rishton Marg'ilon, Buxoro, Samarqand va Movarounnaxrning boshqa shaharlarida islomiy ta'lin olib, hanafiya mazhabining buyuk faqihi sifatida nom qozondi. Shayxulislom bo'lib yetishdi 1149 yil haj safariga bordi. Burhonuddin Marg'inoniy Samarqand shahridagi Chokardiz kabristonga dafn etilgan.

Burhonuddin Marg'inoniy fiqh bo'yicha asosiy asari "Bidoyat ul-mubtadi" ("Boshlovchila uchun qo'llanma")ni hanafiya nazariyotchisi, shariat asoschilaridan Abul Hasan al-Quduri (1029 yil v.e.) va Muhammad ash-Shayboniy (884 yil v.e.) asarlariga tayanib yozgan.

29-BILET

1. Xorazmshohlar davlatining tashkil topishi.

XI asr va XII asrning birinchi yarmida Xorazm saljuqiylar davlati (G'aznaviylar davlati xarobalarida XI asrda tashkil topgan) tarkibiga kirgan. Xorazmning XI asrdagi yuksalishi turkiylar sulolasiga mansub xorazmshohlar siyosati bilan uzviy bog'liq. Mazkur sulolaga saljuq amirining tashtdori Anushtegin asos solgan. Sulton hammomchilari mahkamasining sardori bo'lgan Anushtegin Garchoi Malikshoh (1072-1092 yy.) saroyida yuksak martabaga erishgan. U rahbarlik qilgan mahkama zimmasiga Xorazmni boshqarish ham yuklangan. 1077-yilda Malikshoh Anushtegin Garchoini Xorazmga noib etib tayinlaydi va Xorazmda Anushteginlar sulolasi hukmronligi boshlanadi. Anushteginlar turkiylar sulolasidan bo'lib, o'sha paytda, Osiyoda hukmronlik qilgan uch buyuk sulola: Anushteginlar, Saljuqiylar va G'aznaviylar bir negizdan kelib chiqqan. 1097-yilda Anushtegin vafot etgach, Xorazm noibi etib Ekinji ibn Qorachar tayinlanadi. Biroq u o'sha yili noiblikdan chetlatilib, uning o'rniga Anushteginning o'g'li Qutbiddin Muhammad (1097-1127 yy.) qo'yiladi. Garchi, u "Xorazmshoh" unvonini tiklab, shu nom bilan ulug'lansa ham Saljuqiylarning sadoqatli noibi bo'lib qoldi. Qayta tiklangan xoramshoh mansabiga sazovor bo'lgan Anushtegin nabirasi Otsiz Xorazm mustaqilligi yo'lida astoydil harakat qilgan. Xorazmshoh Otsiz (1127-1156 yy.) saljuq sultoni Sanjarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib borgan. U mug'ombir diplomat va qat'iy sarkarda bo'lib, mustaqil tashqi siyosat yuritadi. Chunonchi, u o'z hukmdori Sanjarning ruxsatisiz qipchoqlar va turkmanlarga qarshi urush boshlaydi. 12-asrning boshida O'rta Osiyoni sharq tomondan yangi istilochilar - qoraxitoylar bosib oladilar. Sulton Sanjar o'zining yaqin qarindoshi bo'lgan samarqandlik qoraxoniylar xoni Mahmudga yordamga keladi. Qoraxitoylarga qarshi Samarqand yaqinida bo'lib o'tgan jang Sanjarning to'la mag'lubiyati bilan yakunlanadi. Xorazmshoh Otsiz Sanjarning mag'lubiyatidan ustalik bilan foydalanib 1141-yili Marvni ishg'ol etadi, 1142-yili esa Nishopurga yaqinlashadi. 1156-yili Otsiz vafot etadi va uning o'g'li Elarslon (1156-1172 yy.) xorazmiylar davlatini mustahkamlashni davom ettirib, Dixistonni tevarak-atrofdagi yerlarga qo'shib oladi. Elarslon o'ziga voris etib o'g'li Sultonshoh Mahmudni (1172-1193) tayinlaydi, biroq to'ng'ich o'g'li Takash ukasi

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!

hokimyatini tan olmay, unga qarshi kurash boshlaydi. Natijada toju-taxt uchun kurash boshlanadi, bu kurash 21 yil davom etib, unda Takash g'olib keladi. Uning o'g'li Tekesh (1172-1200 yy.) 1187-yili Nishopurni, 1192-yili esa Marvni bosib oladi.

2. Nurillaboy saroyining o'ziga xos me'moriy uslublari haqida gapirib bering.

Nurullaboy saroyi - Xivadagi me'moriy yodgorlik. Asfandiyorxonning sobiq rasmiy qabulxonasi (20-asr). Bu saroy-bog'ni Xiva xoni Muhammad Rahimxon II Feruz o'g'li Asfandiyorxon uchun qurdirgan (Nurullaboy degan shaxsning bog'i o'rniga qurilgani uchun Nurullaboy saroyi deb ataladi). Nurullaboy saroyi 9 ta katta-kichik xonalar, darvozaxona, saroy, qabulxona, arzxona, Madrasa, xizmatchilar uchun turar joy, bog', gulzorli hovlilardan iborat. Majmuaga (185,6x143,0 m) jan.dagi ariq ustiga qurilgan ko'prik orqali darvozadan kiriladi. Darvozaxonaning dalonida bir necha xonalar bor. Saroy to'g'ri to'rtburchak tarhli (87,1x65,0 m), 4 hovlili, qal'aband devor (bal. — 7,5 m) bilan o'ralib, burjlar ishlangan. 3 hovlida 2 qavat-li, jan.-g'arbiy hovlida 1 qavatli xonalar joylashgan. Bosh tarzi darvo-zasi Madrasa, turar joy va arzxona bilan o'zaro bog'langan. Saroy shim. dagi 2 hovli ayvonlarning tomi ikkinchi qavat uchun o'tish joyi vazifasini o'taydi. Katta hovli saroyning shim.g'arbiy qismini egallagan. Hovlida quduq bor.

Qabulxona (27,5x32,1 m) saroyning shim.-sharqida, o'ziga xos yevro-pacha uslubda qurilgan. Bosh tarzi jan.ga qaratilgan. 1 qavatli, 7 xonasi bor. Old va orqa tomoni ayvonli.

Arzxona (82,0x71,0 m) saroyning sharqida joylashgan. Tarhi "G" shaklida, jan. qismi uch burchakli, shim. va g'arbga qaratilgan ayvonlari mavjud.

Madrasa bosh tarzi sharqqa qaragan. Jan.-sharqiy burchagida 4 ustunli 2 qavatli masjid, shim.-g'arbida ayvon, hovli atrofida darsxona va hujralar joylashgan. Tashqi devorlari va 4 burchagidagi guldastalar pishiqlik g'isht va koshin bilan bezatilgan.

Bog' saroyga tushgan bo'lib, baland qal'aband devor bilan o'ralgan, burjlar ishlangan. Bog'ning 3 tomonida eshik bo'lib, 2 eshik saroy bilan, sharqdagisi arzxona, qabulxona bilan bog'langan. Bog' o'rtasida 8 qirrali hovuz bor.

3. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy — buyuk qomusiy olim.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783-850 yillarda yashab ijod qilgan) Xorazm diyorida tug'ilib voyaga yetgan. Al-Xorazmiy 20 dan ortiq asarlar yozgn. Ulardan faqat 10 tasigina bizgacha yetib kelgan. Matematikaga doir asarlari "Al-jabr" va "Val-Muqobala", "Kitob surat ul arz", "Astronomiyaga" oid "Zij", "Usturlob bilan ishlash haqida kitob", tarixga oid asarlari "Kitob at-Tarix", "Yahudiylarning taqvimini va bayramlarini aniqlash haqida risola" nomlari bilan atalgan. U "Algebra" faniga asos solgan.

30-BILET

1. MDHga O'zbekistonning a'zo bo'lishi.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) — davlatlararo tashkilot. 1991-yil 8-dekabrda Minskda Belarus, Rossiya, Ukraina tomonidan tuzilgan. Ana shu davlat rahbarlari imzo chekkan Bitimda SSSR chuqur tanazzulga uchrab parchalanib ketish natijasida yo'q bo'lganligi qayd qilindi, uchala davlat siyosiy, iqtisodiy, gumanitar, madaniy va boshqa sohalarda hamkorlikni rivojlantirishga intilishini bayon etdi. 1991-yil 21-dekabrda Bitimga Ozarbayjon, Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston ko'shildi, ular Belarus, Rossiya va Ukraina bilan birga MDHning maqsad va qoidalari to'g'risidagi Deklaratsiyaga Olmaota shahrida imzolashdi. 1993-yil dekabrda MDHga Gruziya qo'shildi. 1993-yil yanvarda MDH Ustavi qabul qilindi, u davlatlarning inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, tashki siyosiy faoliyatini muvofiqlashtirish,

Barcha fandan imtihon javoblarini yuklab olish uchun telegram kanalimizga obuna bo'ling!

umumiy iqtisodiy makonni vujudga keltirish, transport va aloqa tizimlarini rivojlantirish, aholi sog'lig'i va atrof mu-hitni muhofaza qilish, ijtimoiy masalalar va immigratsiya siyosati, uyushgan jinoyatchilikka karshi kurash, mudofaa siyosatida hamkorlik qilish va tashqi chegaralarni qo'riklashda birgalikda faoliyat yuritishni nazarda tutadi. MDH haqiqiy a'zolari bilan birga MDH faoliyatining ayrim turlarida qatnashuvchi a'zolar bo'lishi mumkin.

2. Ichanqal'a me'moriy yodgorligining o'ziga xos vazifasi haqida ma'lumotbering.

O'rta Osiyodagi yirik va noyob me'moriy yodgorlik. Xivaning ichki qal'a (Shahriston) qismi. Ichan qal'a shaharning Dishan qal'a (tashqi qal'a) qismidan kungurador devor bilan ajratilgan. U Xiva raboti (Dishan qal'a)dan baland qo'rg'ontepaga o'xshab ko'rinadi. Ichan qal'aga 4 darvoza (Bog'cha darvoza, Polvon darvoza, Tosh darvoza, Ota darvoza)dan kirilgan.

Xorazm xalq me'morligining ajoyib obidalarini: madrasa, masjid, saroy va minoralar, asosan, Ichan qal'ada. Undagi me'moriy yodgorliklarning yara-tilish tarixi, asosan,

4 davrga taal-luqli: birinchisi Xorazmning qad. davridan to mo'g'ullar istilosi davriga qadar, bu davrdan Ko'qna arkning g'arbiy devori, qal'a devorining shim.sharqiy burchagidagi qad. davrga mansub burj va qal'a devori qoddiqlari saklanib qolgan. Ikkinchisi Xorazmning 1220 yildagi mo'g'ullar istilosidan keyin tiklanish davri. Bu davrda Sayid Alovuddin maqbarasi va b. mahobatli binolar qurilgan. Uchinchi davri 16—17-asrlarga to'g'ri keladi. Shu paytda (Abulg'ozixon va Asfandiyorxon hukmronlik davri) Ichan qal'ada Anushaxon hammomi (1657), peshayvonli Oq masjid (1675), Xo'jamberdibek madrasasi (1688) kabilar bunyod etildi, Ko'hna ark istehkomlari mustaqkamlandi, ko'rinishxona (xonning qabulxona-si) qurildi (1686—88). Buxoro bilan Eron o'rtasida Xiva xonligi uchun boshlangan urush natijasida (18-asrning 1-yarmi) Ichan qal'a va, umuman, Xiva sh.qattiq shikastlandi (Xiva bir qancha vaqt Eronga tobe viloyat bo'lib turdi).

3. Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi Mahmudxo'ja Behbudiyfaoliyati.

Mahmudxo'ja Behbudiy ibn Behbudxo'ja) (20-Yanvar 1875 Samarqand — 25-Mart 1919 Qarshi) dramaturg, noshir, din va jamoat arbobi, jadidchilik harakati yetakchilaridan biri.

U Yassaviy avlodidan. 18 yoshidan qozixonada mirzalik qiladi, qozi, mufti darajasiga ko'tariladi. Behbudiy haj safarida bo'lgan chog'ida Arabiston, Misr, Turkiyani kechib chiqqan (1899—1900). Sayohat davomida yangi maktab (usuli jadid) ochish fikri mustahkamlanib bordi. Samarqand yaqinidagi Halvoyi qishlog'ida Ajziy, Rajabaminda Abdulqodir Shakuriylar bilan hamkorlikda yangi maktab ochadi. Behbudiy Qozon va Ufaga borib (1903—1904), u yerdagi yangi usul maktablari bilan tanishadi, tatar ziyolilari bilan aloqani yo'lga qo'yadi. Yangi maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi.